mashqlar o'tkazish metodikasi, asbob va moslamalardan maqsadga muvofiq foydalanishini puxta o'ylab olishi lozim. O'qituvchi, usta mehnat usullarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni osonlik bilan aniqlash va ularga barham berish choralarini ko'rish imkonini beradigan nazorat tizimini ham ishlab chiqishi zarur. Topshiriqni mustaqil bajarish jarayonida o'qituvchi, usta o'quvchilarining ishini diqqat bilan kuzatib borishi lozim, chunki mashg'ulotning bu elementi unga o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarini aniqlashdagina yordam berib qolmasdan, shu bilan birga bu xatolar orqali o'zining ishidagi ayrim kamchiliklarini ham ko'rishga yordam beradi. O'quvchilarining topshiriqni mustaqil bajarish davri ham mashg'ulotning juda muhim elementi hisoblanadi, bu vaqtida har bir o'quvchining olgan bilimlaridan amalda foydalana olish, konstrukturlik-texnologik vazifalarini hal qilishda ijodiy va bilih faoliyatining darajasi, qiyinchiliklarni mustaqil enga olish, do'stlik, o'zaro yordam tuyg'usi va boshqa fazilatlar qaror topadi. Kasb ta'limi mashg'ulotining so'nggi elementi yakunlovchi instruktaj(yo'llanma)dir. Ayrim o'qituvchilar bu yo'llanmaga ba'zan etarli e'tibor bermaydilar, ayrim hollarda esa uni butunlay inkor qiladilar. Mashg'ulotning yakunlovchi bosqichida o'quvchilarining har biri o'zi olgan bahoni bilishi uchun va ana shu baho orqali o'zining erishgan mvaffaqiyatlarini, yo'l qo'ygan kamchiliklarini ko'rishi, bu kamchiliklarga olib kelgan sabablarini bilishi va ularni tuzatish yo'llari hamda usullarini aniq tasavvur qilishi uchun o'qituvchi, usta ular bajargan ishlarni har tomonlama tahlil qilib berishi lozim. SHunday qilib, o'quv ustaxonalarda mashg'ulotlarni tashkil etish, ularni o'tkazishning to'g'ri metodikasini qo'llanish o'quvchilarining texnikaviy bilimlarini, kasbiy ko'nikma va malakalarini muvaffaqiyatli egallashlari uchun imkon yaratadi.O'quvchilarining ish o'rmini rejalashtirishni tashkil etish va jihozlash, o'quv ustaxonalarini tashkil etish hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyati xususiyatlari, tabiiyki turli kasblar uchun turlichadir. Ammo umuman o'quv ustaxonalari uchun xos bo'lgan bir qator umumiy talablarni ajratib ko'rsatish mumkin. O'quv ustaxonalarda quyidagi talablarga javob berishi kerak: ustaxonalarning me'yoriy o'matilishi, joylashtirilishi va ishlab uchun sharoitlarga (maydon, binoning qavati, balandligi, texnologik oqimni hisobga olgan holda rejalashtirish va hokazo) mehnat xavfsizligi, sanitariya va gigiena talablariga muvofiq bo'lishi (yong'in va portlash xavfi bo'lgan bilimlarni, shuningdek chang va gaz chiqaradigan bo'linmalarni asosiy binolardan ajratish, ko'tarma transport qurilmalarning yong'in paytida chiqish yo'llari va o't o'chirish vositalarning mavjudligi, me'yoriy va sun'iy yoritgichlar shamollatish qurilmalarning mavjudligi, binoda me'yoriy ish haroratining ta'minlashi va hokazo). Bu talablarning me'yoriylari tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan bo'lib, turli tarmoqlar uchun turlichadir, ishlab chiqarish estetikasi talablarga - binoning rangi va bo'yoq turlari (shifti oq, devorlari och sariq panellari

och yashil, derazalari oq rangli bo‘lishi), bezaklar va mebel g‘ilofi hamda devorlardagi bezaklar uslubining uyg‘unligi pol va derazalarni yaxshilab tozalash imkoniyatini mavjudligi va hokazo.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘quv xonalarni jixozlanishini tushuntiring?
2. O‘quv ishlab chiqarish ustasining mudirining vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘quv ishlab chiqarish ustasining mudiri kimning topshirig’ini bajaradi?
4. Kasb-hunar ta’limi o‘quv ustaxonalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish uлarni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablarni tushuntiring?

8-MAVZU: «KASB TA’LIMI METODIKASI» FANIDAN BITIRUV MALAKAVIY ISHLARI

8.1. Bitiruv malakaviy ishlarning maqsad va vazifalari, ularning mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo‘yiladigan talablar, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish va unga qo‘yiladigan talablar.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish (keyingi satrlarda malakaviy ish) oliv o‘quv yurti bakalavriyatida talabalarni o‘qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ishni bajarish maqsadi: Ta’lim bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytarish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo‘llash;

Ijodiy ishslash, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo‘yilish jarayonidan boshlab, uni to‘la nihoyasiga etkazish bo‘yicha qator qabul qilishda bo‘lgan mas‘uliyatni his etishga o‘rgatish;

Zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishslashga tayyorlikligini ta’minlash.

Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusi. Malakaviy ishlarning mavzusini zamонави hоlatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta’lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Malakaviy ishlari mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy o'quv yurti yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir martadan ortiq qayta ko'rib chiqilmaydi. Malakaviy ishlari mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi. Talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov-kontrakt mablag'ini to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlari mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Malakaviy ish mavzusi va rahbarni talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegashli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish. Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini reja-lashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarni hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifi binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha konsultantlar etib, oliy o'quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning qismini tekshiradilar.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan majburiy talablar hajmini belgilagan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha metodik qo'llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni ta'minlaydi.

Malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Malakaviy ishning har bir bo'limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil

ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari aks ettililishi yoki ulardan foydalanish mumkin. Tushuntirish qismi (poyasnitelnaya zapiska) malakaviy ishning mazmunini qo'sha va muayyan shaklda ifodalashi lozim Zaruriy hollarda tushintirish qismiga grafiklar, rasinlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy ko'shimcha axborot yozilgai disketlar ilova etilishi mumkin.

Tushuntirish qismi qo'l yozma tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

Tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so'z hajmida belgilanadi.

Chizmalarning formati, shartli belgilari, shrift va masshtabları amaldagi QOSTlar talablariga qatiy muvofiq kelishi zarur. Kafedraning tavsiyasiga hinoan malakaviy ish chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Malakaviy ishning bajarilishi. Malakaviy ish oliv o'quv yurtining, odатда, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabaning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilaydi. Talaba-ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofigligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holatinig yo'qligiga javob beradi. Bitiruv malakaviy ishlarini amalga oshirishda tundqiqot metodlari. Pedagogik tajribalarni o'rganishda va ilmiy-texnikaviy tundqiqotlar o'tkazishda turli xil metodlardan foydalanish mumkin.

Kuzatish - bu usul ta'lif-tarbiya jarayonini amaldagi holati bilan mishtiradi va natijalarini bilishga yordam beradi. Bu usulni qo'llashda kuzatuvchi o'quv jarayonida qatnashmaydi. Faqat kuzatib ma'lum xulosaga keladi. SHuning uchun kuzatuvchi ma'lum maqsad asosida reja tuzish, yig'ilgan dalillarni tahlil etib qiyoslash negizida tashkil etsagina marali bo'ladi.

Eksperiment tajriba - sinov usuli. Bu usul asosida o'quv jarayonining asosi (o'quv rejasi, dasturi, darsligi), o'qitish shakli va usullari, tarbiya jarayonlarining yangi samarali usullari o'quv-tarbiya ishlarini boshlashning yangi usullari aniqlanadi. Bu usuldan foydalanishda albatta eksperimental va taqqoslash ob'ektlari ajratiladi. Bu usulni qo'llashda:

- 1) reja tuziladi;
- 2) o'tish joyi aniqlanadi;
- 3) o'tkazish vaqtি va muddati;
- 4) tajriba o'tkazish uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar tayyorlanadi;

5) tajriba natijalarini tahlil etilib, xulosa chiqarib tavsiyalar beriladi.

Ilg'or tajribalarni o'rganish - bu usul ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari o'rganiladi va tahlil etilib, o'quv jarayonini tashkil etishga oid tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ilg'or tajribalarni o'rganish - ilg'or o'qituvchilar bilan suhbat, ish metodlarini o'rganish, kinoga olish, o'quvchilarning ishlari bilan tanishi orqali amalga oshirish mumkin.

Nazariy tadqiqotlar - yuqoridagi usullar bilan tadqiqot qilib bo'lmaydigan masalalar bu usul orqali o'rganiladi. Masalan, o'quv materialini mazmunini asoslash amaliyotda to'plangan bilim va malakalarni tekshirish tahlil metodi bilan o'rganilsa, bilim va ko'nikma malakalarinialohida elementlarga ajratib, o'quv dasturi mazmuniga moslab tanlab olinadi, ya'ni sintez qilinadi. Tahlil va sintez nazariy tadqiqot metodidir.

Suhbat - bu usuldan foydalanish uchun avvaldan savol tuzilishi, vaqt va o'tkazilishi joyi belgilanishi, suhbat ishtirokchilarining soni, vazifalari bilan tanishish kerak. suhbat o'tkazish uchun erkin va qulay gaplashish imkoniyati yaratilib, suhbat natijalarini tezda tahlil etish, xulosa chiqarish, maktab hayotiga tatbiq etish kerak.

Matematik tadqiqot usulidan pedagogik hodisalarini miqdor tavsifnomasini ishlab chiqishda foydalilaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining rasmiylashtirilishi. Tushuntirish xati davlat tili, rus tili va ingliz tillarida yozilishi mumkin. Tushuntirish xati jadval va rasmlar bilan 50-60 betdan iborat bo'lishi lozim. Tushuntirish xatinining mazmuni 2 bo'limdan (mutaxassislik hamda pedagogik) iborat bo'ladi.

Bo'limlar kichik qismrlarga bo'linishi mumkin. Har bir bo'lim va qismlar yangi sahifadan boshlanishi tavsiya etiladi. Bo'limlar arab raqamida belgilanadi. Shuningdek, bo'lim tartib raqami bilan ifodalanadi va nuqtalar bilan ajratilgan bob va bo'lim raqamlaridan tashkil topadi (masalan 1.2.).

Barcha rasm va jadvallarning tartib raqami va nomerlari ko'rsatilishi lozim. Ular matnda yozilish ketma-ketligi bo'yicha belgilanadi. Oldin bo'lim raqami, so'ngra bo'limdag'i rasm yoki jadvalning tartib raqami ko'rsatiladi, masalan: Rasm 1.2 (Rasm nomi), Jadval 2.1 (Jadval nomi). Har bir rasm yoki jadvalga matn tushuntirish beriladi.

Hisoblash va boshqa formulalar, matning o'rtaida beriladi. Bunda harflarning ma'nosi tushuntirilishi kerak. Berilgan bo'lim doirasida tushunchalar raqamlanishi lozim, masalan, (2.2) -ikkinci bo'limning ikkinchi formulasi. Formula nomeri kichkina qavs ichida 1-hoshiya chegarasida yoziladi. Formulalar shartli belgilar bosma harfda aniq qilib yozilishi kerak.

Tushuntirish xati qismidagi rasmlar va sxemalar alohida oq qog'ozda chizilib matnga binoan joylashtiriladi. Rasmlar va sxemalar

qora siyohda yoki kompyuterdan foydalangan holda DTS qoidasiga binoan bajarilishi lozim.O'ichov birliklari, hajm va kattaliklar belgilari xalqarc standart tizimiga mos bo'lishi kerak.

BMI asosiy qismi va ilovalari sahifalarining tartib raqami ikkiyoqlama xarakterda ega bo'lishi kerak. Mundarijada BMI ning har bir bo'limi sahifalarining tartib raqami ko'rsatiladi.

Namoyish qilinadigan material A1 formatli vatman qog'ozda SKD talablariga binoan (yoki elektron talqinda) bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini yozishga ham alohida e'tibor beriladi

Izoh: Texnik vositalar yordamida BMI yozish imkoni bo'lмаган holda məhbəriyat roziliği bilan BMI ning tushuntirish xati qo'lda yozilishi mumkin (hajmi 50-60 bet).

8.2.Malakaviy ishni himoya qilish

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish talab darajasida qurilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning bosqqa ijobjiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan DAK da himoya qilishga kiritish haqida quror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabaning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb xisoblasa, masala kafedra majlisida, shular ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi. Himoyaga tafsilgan malakaviy ish taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarini iste'mol qiluvchi soha mukassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida oliy o'quv yurtlarining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqiz bilan himoya uchun DAK ga yuboradi.Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston publikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to'risidagi Nizomda belgilangan.Malakaviy ish himoyadan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablari bo'yicha malakaviy ishni ishqalarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lgan holda (tadbiq etish, unlovlari va hakozo), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).Himoya qilish va unga qo'yiladigan talablar.Himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi OO'YU bitiruvchilarini attestatsiya qilish haqidagi Nizom asosida belgilangan.

Malakaviy bitiruv ishi himoyasida talaba:

ishning mavzusini, uning maqsadi, dolzarbligi, amaliy ahamiyatini;

- ishning qanday qismlardan iborat ekanligini, uning mazmuni va kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan maxsus fanni o'qitishning ishlab chiqilgan uslubiyotini qisqa, aniq, lo'nda holda tushuntirib berish lozim;
- ish bo'yicha maket, qurilma, elektron talqinini namoyish qilinishi kerak;
- ma'ruza davomiyligi 10-15 daqiqa;

BMI himoyasi natijasiga ko'ra —a'lolar, —yaxshilar, —qoniqarliq, —qoniqarsiz baho qo'yiladi. Qoniqarsiz baho olgan taqdirda talaba belgilangan tartibda akademik ma'lumotnomasi oladi va belgilangan tartibda ishga yuboriladi. Birinchi himoya qayta himoya qilishi mumkin.

Himoya va qayta himoya o'rtaсидаги оралық 1 yıldan kam bo'lmasligi kerak.

I – ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

HIMOYAGA RUXSAT ETILSIN:
TASDIQLAYMAN
«PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA
VA O'QITISH METODIKASI»
KAFEDRASI MUDIRI, DOTS.V.B.
E. NASIMOV
«_____» 2015 YIL

BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Tuproqshunoslik” fanining “Tuproq bonitirovkasi va uni o'tkazish uslubiyati” mavzusini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari va o'qitish vositalaridan samarali foydalananish

Bitiruv malakaviy ishini bajaridi:
5140900 «Kasb ta'limi» (Agronomiya) yo'naliishing
4 kurs talabasi D.Z.Rayimqulova

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: prof. I.H. Islomov

Maslahatchi: Samarcand qishloq xo'jalik
kunib-hunar kolleji direktori dots. S.A. Akbarov

Samarqand – 2015

Oliy ta'lim muassasasi

TASDIQLAYMAN

«Pedagogika, psixologiya
va o'qitish metodikasi»
kafedrasи mudiri, dots.v.b.

E.Nasimov

«_____» 2015 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

fakulteti

yo'nalishining

guruh

talabasi

1. Bitiruv malakaviy ishining _____

“_____” 2015 y. № _____ -sonli institut buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati “_____”
2015 yil

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir boshang'ich ma'lumotlar

4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (10 – 15 ming so'z
hajmida):

5. Chizma ishlari tarkibi (ko'rgazmali, taqdimot (prezentatsiya, slayd), chizma materiallar)

6. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatlar

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi)
(imzo) _____

Topshiriqni bajarishga oldim _____ (*familiyasi, ismi, sharifi*)
(imzo)

Topshiriq bajarilgan sana «_____» 2015 yil

3 – ilova

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI INSTITUTI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA MULOHAZA**

Talaba

(F.I.SH.)

Mavzu

1. Mavzuning dolzarbligini asoslanishi _____

2. Talabani ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish qobiliyati

3. Talabanining mavzusining qismlarini bajarishda mustaqil fikr yuritishi, faol o'qitish, usullarini qo'llash, ish natijasini ko'ra bilish

4. Ishning talab darajasiga mos kelishi, tanomlanganligi va himoyaga qo'yilish imkonni

“ ____ ” 2015 y.

Rahbar _____

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA

T A Q R I Z

TALABA

MAVZU

1. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati

2. Ishning tarkibini baholash

3. Mavzuning baholanishi va uning afzallik tomonini ko'rsatish

4. Ishda foydalanilgan adabiyot va qo'shimcha ma'nbalarga baho berish

5. Ilmiy munozara yuritish qobiliyatiga baho berish

6. Xulosa va takliflarning ochiqligi va dalillarning asoslanganligi

7. Jadval va grafiklar chizmalar sifatiga berilgan baho, ishni rasmiylashtirishning talab darajasiga javob berishi

8. Ishdagi kamchiliklar

9. Muallifning qaysi taklifini ishlab chiqarishga joriy etish maqsadga muvofiq

10. Ishning qo'yilgan talab darajasiga mos kelishi to'g'risidagi umumiy xulosa

11.

(taqrizchining F.I.Sh., ish joyi, ilmiy darajasi, unvoni)

«_____» 201__ yil. Imzo _____

Nazorat uchun savollar:

1. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalarini ayting?
2. Bitiruv malakaviy ishimi rasmiylashtirish qoidalarini tushuntiring?
3. Bitiruv malakaviy ishining rahbarining vazifalari nimalardan iborat?
4. Bitiruv malakaviy ishi necha betdan iborat bo'lish kerak?
5. Bitiruv malakaviy ishi ximoyasida talaba vazifalari?
6. Tashqi taqriz kim tomonidan va qanday tartibda yoziladi?

9-MAVZU: KASB TA'LIMIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

9.1. O'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayonining rahbari sifatida avtoritar, demokratik, liberal boshqarish faoliyat.

Pedagogik munosabatlар jarayонини таҳлил қилиш унда иккита қо'шимча izzinlарни ажратиб қо'rsатишга имкон беради:

O'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlash.

O'qituvchilar bilan bevosita munosabatlар давомидаги ijodiy faoliyati.

Pedagogik munosabat pedagogik faoliyat tarkibida ishtiroy etadi.

Munosabatning kommunikativ turi ma'lumotlar almashish, bir-uriga ta'sirko'rsatish, boshqaning xulqiga ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA

TAQRIZ

TALABA

MAVZU

1. Mavzuning dolzarbliji va ahamiyati

2. Ishning tarkibini baholash

3. Mavzuning baholanishi va uning afzallik tomonini ko'rsatish

4. Ishda foydalanilgan adabiyot va qo'shimcha ma'balarga baho berish

5. Ilmiy munozara yuritish qobiliyatiga baho berish

6. Xulosa va takliflarning ochiqligi va dalillarning asoslanganligi

7. Jadval va grafiklar chizmalar sifatiga berilgan baho, ishni rasmiylashtirishning talab darajasiga javob berishi

8. Ishdagi kamchiliklar

9. Muallifning qaysi taklifini ishlab chiqarishga joriy etish maqsadga muvofiq

10. Ishning qo'yilgan talab darajasiga mos kelishi to'g'risidagi umumiy xulosa

11.

(taqrizchining F.I.Sh., ish joyi, ilmiy darajasi, unvoni)

» _____ 201 ____ yil. Imzo _____

Nazorat uchun savollar:

1. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalarini aytинг?
2. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish qoidalarini tushuntiring?
3. Bitiruv malakaviy ishining rahbarining vazifalari nimalardan iborat?
4. Bitiruv malakaviy ishi necha betdan iborat bo'lish kerak?
5. Bitiruv malakaviy ishi ximoyasida talaba vazifalari?
6. Tashqi taqriz kim tomonidan va qanday tartibda yoziladi?

9-MAVZU: KASB TA'LIMIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

9.1. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida avtoritar, demokratik, liberal boshqarish faoliyati.

Pedagogik munosabatlar jarayonini tahlil qilish unda ikkita qo'shimcha tizimlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- 1) o'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlash.
- 2) qiliuvchilar bilan bevosita munosabatlar davomidagi ijodiy faoliyati.

Pedagogik munosabat pedagogik faoliyat tarkibida ishtirok etadi.

Munosabatning kommunikativ turi ma'lumotlar almashish, bir-biriga ta'sirko'rsatish, boshqaning xulqiga ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi.

9.2 O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlarini boshqarish.

Bilim, ko'nikma va malakalar sifati eng avval ularning puxtaligi va ongliligi bilan xarakterlanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligiga ishonch hosil qilish uchun ularni faqat o'zlashtirilayotgan paytda emas, balki o'quvchilarning keyingi faoliyatlarida ham tekshirish kerak.

Ta'lrim jarayonida o'quvchilarini tizimli va rejali nazorat qilish katta ahamiyatga ega. Kasb-hunar ta'limi darslarida olinadigan bilim, ko'nikma va malakalarning sifati ko'p jihatdan ularning —ixchamligi, ya'ni ularni o'quvchilar yangi mehnatning sharoitlarida qanchalik qulay olishlariga bog'liq. Masalan, o'quvchilar tikuvchilik darslarida olgan bilim va malakalaridan foydalaniib tikuvchilik mashinalari (overlog, to'g'ri va har xil choc tikadigan, zigzag, tugma qaviyidigan, petlya tikadigan va h.k.)da mustaqil ifodalash topshirig'ini qo'yish mumkin. Politexnik ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilar bunday topshiriqlarni bajarishga tayyorlangan bo'lishi kerak.

O'quv ustaxonalardagi mashg'ulotlarda mustaqil kuzatish bo'yicha o'quvchilar amaliy ish bajarayotganda ular vaqt me'yorini ob'ektiv belgilash maqsadida o'z mehnat faoliyatini o'zi kuzatishiga oid beriladigan topshiriqlini ko'rsatish mumkin.

Boshqacha so'z bilan aytganda, o'quvchilar har yili yoki bir necha yil davomida takrorlanib turadigan eng tipik va muntazam ish turlarini bajarishda o'z faoliyatları yuzasidan o'zları xronometraj (vaqt o'lchami) o'tkazishlari mumkin.

Xronometraj jarayonida har bir o'quvchi sekundomer yordamida har qanday buyumni tayyorlashda har bir mehnat operatsiyasiga sarflanadigan umumiyl vaqt me'yorini xronokartaga qayd etadi. Bunday kuzatish davomli (chorak, yarim yil) bo'ladi. Bu mehnatni me'yorlashni o'rganish ma'nosida o'quvchilarning o'zları uchun ham, o'quv ustaxonasi uchun ham qimmatli bo'lib bundan tashqari tayyorlanadigan mahsulot uchun o'quvchilarga ob'ektiv vaqt me'yorini belgilashda birinchi navbatda, kasb-hunar ta'limining tashkiliy tomonlarini yaxshilashga yordam beradi.

Kasb-hunar kollej o'quvchilarini bo'sh vaqtlarini boshqarishda darsdan tashqari ishlar ya'ni mustaqil ta'lim olish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydaliladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;
- loyihamalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
- diplom ishiga tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llash;
- unaliyotdagi mavjud muammolarning echimlarini topish;
- maket, model va namunalar yaratish;
- hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish;
- berilgan mavzu bo‘yicha kompyuterlardan kerakli ma’lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;
- elektron darsliklardan foydalanim, topshiriqlarni bajarish.

O‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin. O‘quv dasturlarida o‘quvchi mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Har bir fan bo‘yicha o‘quvchining mustaqil ishiga rahbarlik qilish o‘qituvchining shaxsiy ish rejasida qayd etiladi.

O‘quvchi mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra yoki bo‘limda tuzilib mudirlari tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

O‘quvchining mustaqil ishi bo‘yicha maslahat soatlari guruhi jurnalida qayd etilib boriladi. O‘quvchi mustaqil ishini nazorat qilish o‘quv mashg‘ulotlarini bevosita olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. O‘quvchining mustaqil ishi, muayyan fan o‘quv dasturida qaratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo‘yicha o‘quvchining umumiyyat bahosiga kiritiladi. O‘quvchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo‘yicha olgan baholari guruhi baholash oynasida yoritib boriladi.

O‘quvchining mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli bo‘lim yoki kafedra tomonidan belgilanadi va kasb-hunar kolleji ilmiy pedagogik kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari o‘quvchilarga o‘quv yili (semestri) bosqchanishi oldidan metodik materiallar bilan birqalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida o‘quvchilarning mustaqil ishlari bo‘yicha o‘zlashtirishi muuntazam ravishda guruhlarda, bo‘lim yig‘ilishlari va kollej ilmiy pedagogik kengashida muhokama etib boriladi.

O‘quvchining mustaqil ishi bo‘yicha bajargan ishlari (hisobot, referat, hisoblashlar va h.k.) ro‘yxatga olinadi va o‘quv yili mobaynida saqlanadi. O‘quvchilarning yuqori darajada baholangan mustaqil ishlari ma’naviy va moddiy jihatdan rag‘batlantiriladi.

Kasb-hunar kollejlari mustaqil ishlarni zamon talablar asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun kollej rahbariyati va o‘qituvchilar yaxshi pedagog va kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo‘lishi kerak.

9.2 O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlanini boshqarish.

Bilim, ko'nikma va malakalar sifati eng avval ularning puxtaligi va ongliligi bilan xarakterlanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligiga ishonch hosil qilish uchun ularni faqat o'zlashtirilayotgan paytda emas, balki o'quvchilarning keyingi faoliyatlarida ham tekshirish kerak.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tizimli va rejali nazorat qilish katta ahamiyatga ega. Kasb-hunar ta'limi darslarida olinadigan bilim, ko'nikma va malakalarning sifati ko'p jihatdan ularning —ixchamligi, ya'ni ularni o'quvchilar yangi mehnatning sharoitlarida qanchalik qulay olishlariga bog'liq. Masalan, o'quvchilar tikuvchilik darslarida olgan bilim va malakalaridan foydalaniib tikuvchilik mashinalari (overlog, to'g'ri va har xil choc tikadigan, zigzag, tugma qaviyidigan, petlya tikadigan va h.k.)da mustaqil ifodalash topshirig'ini qo'yish mumkin. Politexnik ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilar bunday topshiriqlarni bajarishga tayyorlangan bo'lishi kerak.

O'quv ustaxonalardagi mashg'ulotlarda mustaqil kuzatish bo'yicha o'quvchilar amaliy ish bajarayotganda ular vaqt me'yorini ob'ektiv belgilash maqsadida o'z mehnat faoliyatini o'zi kuzatishiga oid beriladigan topshiriqni ko'rsatish mumkin.

Boshqacha so'z bilan aytganda, o'quvchilar har yili yoki bir necha yil davomida takrorlanib turadigan eng tipik va muntazam ish turlarini bajarishda o'z faoliyatları yuzasidan o'zları xronometraj (vaqt o'lchami) o'tkazishlari mumkin.

Xronometraj jarayonida har bir o'quvchi sekundomer yordamida har qanday buyumni tayyorlashda har bir mehnat operatsiyasiga sarflanadigan umumiy vaqt me'yorini xronokartaga qayd etadi. Bunday kuzatish davomli (chorak, yarim yil) bo'ladi. Bu mehnatni me'yorlashni o'rghanish ma'nosida o'quvchilarning o'zları uchun ham, o'quv ustaxonasi uchun ham qimmatli bo'lib bundan tashqari tayyorlanadigan mahsulot uchun o'quvchilarga ob'ektiv vaqt me'yorini belgilashda birinchi navbatda, kasb-hunar ta'limining tashkiliy tomonlarini yaxshilashga yordam beradi.

Kasb-hunar kollej o'quvchilarini bo'sh vaqtlanini boshqarishda darsdan tashqari ishlari ya'ni mustaqil ta'limga olish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalaniлади:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzbu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
lo'yihalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
diplom ishiga tayyorlash;
sizariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
amaliyotdagi mavjud muammolarning echimlarini topish;
muket, model va namunalar yaratish;
hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish;
berilgan mavzuv bo'yicha kompyuterlardan kerakli ma'lumotlarni
mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;
elektron darsliklardan foydalanim, topshiriqlarni bajarish.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlardan kelib chiqqan holda,
o'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham
foydalanilishi mumkin. O'quv dasturlarida o'quvchi mustaqil ishining
shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Har bir fan bo'yicha o'quvchining mustaqil ishiga rahbarlik qilish
o'qituvchining shaxsiy ish rejasida qayd etiladi.

O'quvchi mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra yoki bo'limda tuzilib
audirlari tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga
oshliriladi.

O'quvchining mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari guruh
jurnalida qayd etilib boriladi. O'quvchi mustaqil ishini nazorat qilish
o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga
oshliriladi. O'quvchining mustaqil ishi, muayyan fan o'quv dasturida
o'rnatilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo'yicha o'quvchining
nomiy bahosiga kiritiladi. O'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, shu
jumladan mustaqil ishi bo'yicha olgan baholari guruh baholash oynasida
yuritib boriladi.

O'quvchining mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash
mezonlari tegishli bo'lim yoki kafedra tomonidan belgilanadi va kasb-
hunar kolleji ilmiy pedagogik kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanadi.
Mustaqil ishlarni baholash mezonlari o'quvchilarga o'quv yili (semestri)
bosghanishi oldidan metodik materiallar bilan birqalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida o'quvchilarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi
minnatum ravishda guruhlarda, bo'lim yig'ilishlari va kollej ilmiy
pedagogik kengashida muhokama etib boriladi.

O'quvchining mustaqil ishi bo'yicha bajargan ishlari (hisobot,
referat, hisoblashlar va h.k.) ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida
tasdiqlanadi. O'quvchilarning yuqori darajada baholangan mustaqil ishlari
nomiy va moddiy jihatdan rag'batlaniriladi.

Kasb-hunar kollejlari mustaqil ishlarni zamон talablar asosida tashkil
etish va unga rahbarlik qilish uchun kollej rahbariyati va o'qituvchilar
yaxshi pedagog va kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar
bo'lishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerak:

- o'quvchilarini milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, usul va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lif, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uziyiligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Mustaqil ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Kasb-hunar kollejlaridagi mustaqil ishlarning mazmuni o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan tasdiqlangan mustaqil ishlar to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

9.3. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati

Muayyan mutaxassisni tayyorlashda ta'lif va tarbiya berishni asosiy qonuniyatlari amalga oshirilishi shart. Bunday qonuniyatlardan biri "Pedagog-o'qituvchi" munosabatini erkinlashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbi pedagogik faoliyatining xususiyati shundaki, u xuddi ikki taraflama mehnat predmetiga ega bo'лади. Bir tomonidan, uning asosiy vazifasini insonlar bilan o'zaro munosabat tashkil qilsa. ikkinchi tomonidan, ma'lum bir kasb sohada maxsus bilim ko'nikma va mahoratga ega bo'lishi talab qilinadi.

Bundan tashqan, ishlab chiqarish ta'limi ustasi talabalarning mehnat faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olishi kerak Bu esa tarbiyashunoslik va maxsus soha bo'yicha tayyorgarlikni talab etadi. Demak, ishlab chiqarish ta'limi ustasi xushmuomala, shuningdek, ma'lum shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbining o'ziga xosligi uning ijtimoiy, jamoaviy va ijodiy tavsifidan iboratdir.

Kasb - hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta'limi ustalari ishining tahlili shuni ko'rsatdiki, bugun u Davlat ta'lif standartida belgilangan tayyorgarlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruvchanlik, o'quv-uslubiy ishlarni bajarish kabi mahoratga ham ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ish bo'yicha ko'nikma va mahorati, kasb - hunar kollejidagi faoliyati jarayonida shakllanishi kerak. Aynan usta o'quvchilarning kasb madaniyati bo'yicha dunyoqarashini, odob-axloqining shakllanishini nazorat qiladi. Bu

funksiyalarni bajarish uchun ustuning o'zi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlab o'tganimizdeik, ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyatini tabalar bilan bog'liqidir. Bu o'zaro harakat, ya'ni "Pedagog - o'quvchi" tarbiyaviy munosabatlari doirasida amalgalashadi.

SHuning uchun ham, ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatga ikki taraflama yondashish kerak. Birinchidan, kasb ta'limi mazmuni bo'yicha usta u yoki bu maxsus sohada ma'lum bilim, ko'nigma va mahoratlarning tashuvchisi hisoblanadi, biroq shu vaqtning o'zida talabalar bilan o'zaro faoliyat yuritadi.

"Usta - talaba" tizimidagi o'zaro munosabatlar muhim pedagogik shartlardan biri bo'lib, bo'lajak kichik mutaxassislarni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ishlar sohasidagi bilim va mahorat darajasi faqat ularning pedagogika, psixologiya, ishlab chiqarish ta'limi ushlabi bo'yicha savollarga bergan javobi bo'yicha baholanadi. Ko'rinish turibdiki, bu erda ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatida tarbiyaviy yo'naliш inabatga olinmagan va o'quv rejasida ham bunday fan yo'q.

Nuzariy jihatdan u yoki bu faoliyat tayyorgarligini baholash asosida amalgalashadi. Bular motivasiyalri yo'naltiruvchi ijtimoiy-psixologik va jarayonli komponentlar.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining motivasiyalri komponenti tarbiyaviy ishga qobiliyti munosabatni tarkib topshirish, rivojlantirish va boshqarmani o'z ichiga oladi. "Tarbiyaviy ishda motivasiya" deganda tarbiyaviy faoliyat mazmunini, yo'naliшini va tavsifini aniqlovchi motivasiyalar, to'plami tushuniladi.

Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivasiyalar mayjud bo'lib, ularga ta'lim muassasidagi ishning ustuvorligi, pedagog sifatida shaxsiy va kasbiy o'sish faoliyati, tarbiyaviy motivasiyalarga ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatining ta'siri va natijasini kiritish mumkin. SHuningdek, motivasiya sifatida va boshqaruv motivasiya ham mayjud bo'lib, bular ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi harakatda yuzaga chiqadi.

Ustuning etakchi tarbiyaviy motivasiyasi deb, talabaning bo'lajak malakali shaxsiy mutaxassis sifatida shakllanishiga g'amxo'rlik qilishiga aytildi.

Tarbiyaviy ishga tayyorgarlikning yo'naltiruvchi komponenti ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyati xususiyatlari va sharoitlar to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini o'z ichiga oladi va qiziqish. yondashuvchanlik, dunyoqarash, ishonch hosil qilish, ko'zlangan maqsad orqali kasbiy o'maltiliganligini ifodalaydi.

Bir kasbga qiziqishi, asosan, yo'naltirilganlikning birinchi shakli hisoblanib, o'sha maktabdar shakllana boshlaydi. SHuningdek, tarbiyaviy ishga qiziqish ham shaxsidan boshlarib, bir qancha talablarga ega va odamning o'zaro ta'siri bilan bo'lgan. Maktabda olingan bilim tarbiyaviy ishga bo'lgan qiziqishga asos bo'lishi mumkin.

Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma'lum yo'nalishda harakatlanishlanga sabab bo'ladi.

Tarbiyaviy ishga bo'lgan qiziqish «bilinga chanqoqlik»ni keltirib chiqarsa, unga yondashuvchanlik - "faoliyatga chanqoqlik"ni yuzaga keltiradi. Bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasi o'qitish va tarbiyalash jarayonida yondashuvchanlikni rivojlantirib borishi zarur.

Ma'lumki, dunyoqarash dunyo qonuniyatları, insonni o'rab turgan mavjudotlar, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar hamda tasavvurlar tizimini bildiradi.

Tarbiyaviy faoliyatga nisbatan kasbiy dunyoqarash, qiziqish va yondashuvchanlikdan farqli ravishda tarbiyaviy ish haqida to'liqroq integrasiyalangan tasavvurni beradi.

Kasbiy dunyoqarash fikrlash va ioda bilan birga asta-sekin shakllanib, rivojlanib boradi. Tarbiyaviy ishda kasbiy dunyoqarashni shakllantirish - ishlab chiqarish ta'limi ustasini tayyorlashdagi bosh vazifa bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy - psixologik komponent ishlab chiqarish ta'limi ustasining talabalar bilan muomala va o'zaro hamkorlik qilishdagi adekvat faoliyatini ta'minlaydi.

Jarayonli komponent ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy uslub va usullarni egallashida, ularni amalda bajarish uchun bo'lgan bilim, ko'nikma va mahoratni sintez qilishda ifodalanadi.

Tarbiyaviy faoliyat - darsdan tashqari ishlarni. ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruh shaklidagi faoliyatni shakllantirishni, ruhiy - pedagogik tashxis o'tkazishni, talabardan shaxs sifatida shakllanishini, ota - onalar bilan ishlashni o'z ichiga olishi mumkin.

Demak, ishlab chiqarish ta'limi ustasi pedagogik faoliyat yuritadi, uning vazifasi bo'lajak kichik mutaxassis shaxsini tarbiyalash va shakllantirishdan iboratdir.

10-MAVZU: KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

10.1. Baholashning ob'ektivligi va tabaqalashtirilganligi

Baholash va uning ahamiyati. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishda ibrat jarayondar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish munikin:

Nima uchun baholash kerak?

- O‘quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o‘tishdan oldin avvalgi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o‘qituvchi o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta’lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o‘quvchilarни yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma’lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- amaliy ko‘nikma va malakalarni;
- xulq — atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

- Ta’lim jarayoni boshida (boshlang‘ich baholash);
- Ta’lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- Ta’lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- Ta’lim maqsadiga yo‘nalganlik;
- Muntazam o‘tkazib borish;
- Pedagogik, psixologik va huquqiy tarmoyillarga asoslangartlik;
- Umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta’kidlanganidek, nazariy bilimlar, baholanayotganda kognitiv (*shaxsnинг mustaqil fikrlash jarayoni*) o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko‘nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq - atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa affektiv o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Bahoning ob’ektivligi, ayrim o‘quvchilar mehnati natijalarini tajqidlash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko‘rsatkichlari (buyumning o‘qlijligi, buyumlar miqdori va hokazolar)ga asoslanadi. Bahoning yagona

talablar asosida qo'yilishi ham uning ob'ektivligidir. Ana shu talablar quyidagilardan iborat:

1. *Ishlash aniqligi*. Aniqlik – har qanday mahsulotni, shu jumladan, tikuvchilik sanoati mahsulotlarini tayyorlashga qo'yiladigan talabdir.

2. *Vaqt me'yori*. Me'yorlash xususida mehnat topshirig'ini bajarishni vaqt bo'yicha chegaralash o'quvchilar mehnat operatsiyalarini bajarish usullarini egallab olganlaridan keyin amalga oshirilishi kerak. Bunda o'quvchilar bir yo'la ham ishning sifatlari bajarilishini kuzatishni, ham uni ma'lum muddatda bajarishga intilishni uddalay olmasligi va ta'limning birinchi bosqichida vaqt me'yori kiritilsa, miqdor ko'rsatkichlari sifat hisobiga ortishidan kelib chiqadi.

3. *O'quvchilarning bilimlari*. O'quvchilarning amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil qilinadi. SHu sababli ularning faoliyatini baholashda o'quvchilar dastur materialini qanday harida va qanchalik chuqur o'zlashtirganini hisobga olish kerak.

4. *Mehnat usullarini to'g'ri bajarish*. O'quvchilar asbobni ushslash, ish holatida turish, asbobning ishlov berilayotgan sirtga nisbatan qanday holatga tutish haqidagi ko'rsatmalarni qat'iy bajarishlari kerak. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish ko'nikmalari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

5. *Ish o'rnnini to'g'ri tashkil qilish*. Ishlab chiqarishda ish o'rnnini to'g'ri tashkil mehnat unumdorligini oshiradi. O'quvchilar mehnat madaniyatining saviyasi ko'proq o'z ish o'rnnini to'g'ri tashkil qila olishiga bog'liqdir.

6. *Mehnat xavfsizligi qoidalariga rivoja qilish*. Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalar buzilsa, jarohatlanish xavfi tug'iladi. Jihozlar va asboblarni ishlatishdagi mehnat usullari va hokazolarni bajarishdagi xavfsizlik qoidalarini buzgan o'quvchilarning bahosini pasaytitirish kerak.

10.2. Baholashda e'tiborga olinadigan omillar

Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yxash», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'ilsak, baholash mezonlari ta'lif oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash shakllari. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Me'yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash — baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'liga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan xamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lehashdan iborat bo'igan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'rghanish maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan-to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalarini aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lechanadi.

Baholash turlari. Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- Boshlang'ich baholash
- Joriy, ya'ni shakllantiruvchi baholash
- Yakuniy, ya'ni umumlashtiruvchi baholash

Boshlang'ich baholash — ta'lim jarayoni boshida ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni hamarasi ni tezkor (operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash - ta'lim oluvchining ta'limi jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi. Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga o'tbor berish lozim:

Ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uni baholashga tayyorgarlik le'tishga olib keladi. Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini obetga olishga hamda ta'lim oluvchini o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.

Baholash o'tkazish sharoitida o'quvchi o'zini erkin tutishi va o'suxuhlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak. Baholovchi va

ta'lism oluvchi baholash nima berishi, u qachon, Kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir. Qo'yilgan baho o'quv natijasini tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir. Ta'lism oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamidabaholanishi lozim. Rejalahtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Baholash tamoyillari

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi.

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik
- Haqiqiylik
- Haqqoniylilik
- Ishonchlilik
- Qulaylik

1. *O'quv maqsadlariga asoslanganlik*. Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqidir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. SHuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2. *Haqiqiylik*. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. *Haqqoniylilik (ob'ektivlilik)*. Bir-biridan mustaqil ta'lism beruvchilar bir xil ta'lism oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur topshiriq va test haqiqiy hisoblanadi. Bu haqqoniylilik har xil vaqtarda berilgan baholar uchun taalluqlidir.

4. *Ishonchlilik*. Natijalarni baholash mobaynida har xil usulardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligini qanchalik ishonchliekanligi nazarda tutiladi.

5. *Qulaylik*. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mosbo'lishi, murakkab bo'imasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lism ouvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Baholash tizimlari. Oxirgi paytlarda Respublikamiz ta'lism muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda.

1. Baholashning besh ballik tizimi.
2. Baholashning reyting tizimi.

Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik minblar qo'shiladi:

- Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart.

Talabga rioya etilmasa, o'quvchilarining o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'limga oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. ta'limga beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi.

- Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir o'quvchi bilimlari, ko'nikma va malaka baholanayotganini tushunishi kerak.

• Davlat ta'limga standartlariga asoslanganlik. Ta'limga ouvchilarining bilimlari, malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi muqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'limga jarayonidagi tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quvchilarining o'quv materialini o'zlashtirishlari haqidagi ob'ektiv axborotni olish, bilimlarni hamarali o'zlashtirishdagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdan iborat.

Ta'limga jarayonidagi tekshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarining bilim darajasini oldindan aniqlash (odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilarining avvalgi o'quv yilda o'zlashtirgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi).
2. Har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirish (joriy tekshirish o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi; mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni organizhdan iborat).
3. Oraliq tekshirish (bu tekshirish o'quvchilarining o'quv materialining muayyan bob yoki bo'yimlari bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini darajasini aniqlash, baholash shakli bo'lib, o'quvchilar mazkur jumyonda yangi mavzuni o'rganish bilan birga avval o'zlashtirilganlarini tekrorlaydilar; takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga imkonlashadi, biroq, o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamliligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi).
4. O'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalarini yaxlit bo'lim yoki turning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish (uni tashkil etishdan jo'zlangan maqsad kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtaidiagi o'zaro aloqalarga ko'ra o'zlashtirish

sifatini tashxislashdan iborat; davriy tekshirishning asosiy vazifasi esa mavjud bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish sanaladi).

5. Ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olish (o'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorakda va o'quv yili oxirida o'tkaziladi).

O'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish natijalari baho (ballar)da ifodalanadi.

Baho – o'quvchilarga ularning ta'lim olishlari, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashuvlarini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni hisobga olishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) o'quv dasturi asosida mavzu yoki bo'limni o'rghanishda o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- 2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarining faoliyatini to'g'risida xulosa chiqarish;
- 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayangan holdagini o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini baholamaslik;
- 4) o'quvchilarining mayjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Ta'lim jarayonidagi nazorat ishlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) nazorat (o'quv materiallarini o'rghanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi; o'qituvchi tomonidan o'quv metodlari va usullarining to'g'ri tanlaganligini belgilaydi);
- 2) o'qitish (o'quvchilar tomonidan qaysi mavzularning puxta o'zlashtirilganligi yoki aksincha, o'zlashtirilmaganligini aniqlash asosida qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilash imkoniyatini yaratadi);
- 3) tarbiyalash (o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtдан unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rGANADILAR; qolaversa, o'quvchilarining bilimlari, qobiliyatlarini o'zlarini mustaqil aniqlashlariga ham yordam beradi; buning natijasida kamchiliklarni ko'ra olish a uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi);
- 4) rivojlantirish (shaxsnинг tafakkurini o'stirish, his-tuyg'ulari, axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi).

O'quvchilarining o'quv faoliyatini nazorat qilishning quyidagi turlari mavjud:

- 1) joriy nazorat (JN);
- 2) oraliq nazorat (ON);
- 3) yakuniy nazorat (YAN).

Joriy **nazorat** o'quvchilarning o'quv dasturi mavzulari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni aniqlash, baholash shakli sanaladi. U o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi. Joriy nazoratni tashkil etishda o'quvchilarga mavzu bo'yicha kundalik ballar qo'yiladi.

Oraliq **nazorat** o'quvchilarning bob yoki bo'limlari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini aniqlash, baholash shakli bo'lib, uni o'qituvchi o'quv jadvali asosida o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda muayyan muddatlarda tashkil etadi.

Yakuniy **nazorat** choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi; u og'zaki, yozma, test, amaliy topshiriqlar shaklida o'tkaziladi.

Ta'lif jarayonida nazoratning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin:

1) nazoratning ommaviy (frontal) shakliga ko'ra o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqacha javob qaytaradilar;

2) nazoratning guruqli shakliga ko'ra o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi; o'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga berilgan vazifa ma'lum vaqt ichida bajariladi;

3) nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini mukammal tashxislash uchun foydalilanadi;

4) nazoratning uyg'unlashtirilgan (kombinatsiyalangan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruqli shakllar bilan o'zaro uyg'unlashtirishni taqozo etadi;

5) o'z-o'zini nazorat qilish psixologik mezonlarga asoslanib, ta'lif jarayonida ichki qaytar aloqani yuzaga keltirishga xizmat qiladi; uning amaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq.

O'quvchilar faoliyatini nazorat qilishning quyidagi metodlari mavjud:

- og'zaki tekshirish;
- yozma tekshirish;
- amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish;
- uy vazifalarini tekshirish.

10.3. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish

O'quvchilarning o'quv faoliyatini natijalarini tekshirishda shkalalash, test, reyting kabi metodlar qo'llaniladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini natijalarini shkalalash – aniq jisyonlarni raqamlar tizimi asosida modellashtirish bo'lib, u sifat usisflarni miqdor o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Test (inglizchadan “test” – sinash, tekshirish, o’rganish) – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko’rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi sanaladi.

Test quyidagi afzalliklarga ega:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy, amaliy bilim darajasini ob’ektiv aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtda ko’p sonli o’quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o’qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- 5) barcha o’quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Reyting (inglizcha “rating” – baholash, tartibga keltirish, daraja) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo’yicha baholash sanaladi.

Reyting tizimi o’quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli hisoblanadi.

Reyting tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- baholash imkoniyatlarini kengaytirish;
- o’quvchilar bilimlarini ob’ektiv aniqlash;
- ta’limni standartlashtirishni ta’minlash;
- davlat ta’lim standartlarida ko’zda tutilib, o’quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy bilim, ko’nikma, malakalarini to’la o’zlashtirilishini ta’minlash;
- o’quvchilarda mustaqil bilim olish, erkin fikr yuritish ko’nikmalarini shakllantirish;
- bilimlarni ixtiyoriy o’zlashtirish uchun imkoniyat yaratish, kamchiliklarni bartaraf etish.

O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

100-86 ball qo’yiladi, agar: a) material to’liq o’zlashtirilsa; b) mavzu bo’yicha asosiy ma’lumotlar mohiyati ochib berilsa; v) o’zlashtirilgan bilimlar amalda qo’llanilsa; g) mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga qo’l qo’ymasdan, ma’lumotlar tushuntirib berilsa.

85-71 ball qo’yiladi, agar: a) mavzu mohiyati yoritilsa; b) savollarga qiyalmasdan javob qaytarilsa; v) o’zlashtirilgan bilimlar amaliyotda qo’llanilsa; g) og’zaki javob berishda xatolarga yo’l qo’ymay, qo’shimcha savollar bilan xatolar to’g’rilansa, yozma ishda biroz xatoga yo’l qo’yilsa;

70-55 ball qo’yiladi, agar: a) mavzu o’zlashtirilgan, lekin mustaqil tushuntirish berishda o’qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezilsa; b) savollarning mantiqiy tuzilishi o’zgartirilib berilganda, javob berishga qiyin bo’lsa; v) yozma ishda xatolar mavjud bo’lsa.

54-0 ball qo'yiladi, agar: mavzu haqida tushunchaga ega bo'lingani holda u o'zlashtirilmasa, yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa

Nazorat uchun savollar:

1. Baho nima va unga ta'rif bering?
2. Baholashda nimalar e'tiborga olinadi?
3. Baholash tamoyiilarini tushuntiring?
4. Test nima va afzalliklarini tushuntirish?
5. Baholash mezonlarini tushuntiring?

11-MAVZU: KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI

11.1. Pedagogik mahorat manbalari va uslubiy ishlarni tashkil qilish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish natijasida barkamol, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni raqobatbardosh, etuk bo'lib etishishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan, amalga oshiriladigan uslubiy ishlar muhim o'ringa egadir. Uslubiy ishlar ta'lim tarbiya jarayoni bilan shug'llanadigan har bir o'qituvchi muhandis-pedagog, rahbar hodimlarning o'z malakalarini oshirishda katta ahamiyatga egadir. CHunki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limning tayyorlash uchun avvalambor ta'lim tarbiya bilan shug'llanuvchilaning o'zları etuk, yuqori malakali bo'lishlari shart. Bu talabga javob berish uchun har bir o'qituvchi, injener-pedagog, rahbar uslubiy ishlarni bilan shug'llanishi va ularda qatnashishi zarur.

O'quv-tarbiya jarayoni ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash masalalaridan biri bo'lib ta'lim mazmunini takomillashtirish masalasi turadi. CHunki, ta'lim mazmuni o'quv reja, dasturlar, davlat hujjatlari bo'lib, ularni takomillashtirib borish va to'la-to'kis amalga oshirish natijasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi sababli bu masala uslubiy ishlarda asosiy bo'lib xisoblanadi.

Bizga ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dastur qabul qilingandan so'ng, ta'lim tizimida yangi bo'g'in o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi paydo bo'ldi va xozirgi kunda 500 dan ortiq kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tashkil qilindi va faoliyat ko'rsatmoqda.

1998-2004 yillar ichida bu o'quv muassasalarida 280 dan ortiq tayyorlov yo'naliishlari bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlash amalga

oshirilmoqda. Bu tayyorlov yo'nalishlar bo'yicha o'quv rejalarini va dasturlari tayyorlangan bo'lib, ular tajriba-sinovdan o'tmoqda. Bu o'quv rejalarida umumta'lum fanlar, maxsus fanlar, umumkasbiy fanlar, ishlab chiqish ta'limi amaliyoti ko'rsatilgan bo'lib, ularni takomillashtirishda uslubiy ishlarni amalgalga oshirilishi katta ahamiyatga egadir.

Metodik ishlar o'quv muassasalaridagi o'quv tarbiyaviy jarayonning holatini o'rganish, ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish, ularni hayotga tadbiq etish orqali amalgalga oshiriladi.

O'quv muassasasining muhandis-pedagoglarning faoliyati faqatgina nazariy va amaliy bilimlar berish ya'ni darslar o'tish bilan cheklanib qolmaslik ular faoliyatida har bir o'quvchi bilan shaxsiy ishlash, o'z ustida mustaqil ishslash, o'quvchilar guruxi bilan ishslash, o'z fani bo'yicha tashkiliy ishlarni olib borish, kabinet, laboratoriya, o'quv ustaxonalarini tashkil qilish va jihozlash, ota-onalar bilan ishslash, fanlar bo'yicha uslubiy komissiyyalar ishida qatnashish va hakozolar bilan bog'liq.

Muhandis-pedagoglar o'quvchilar guruhi bilan ishslash, ularning ishlarni tashkil qilish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z ustida har doim tinimsiz ishlashi kerak, buning uchun ular bilimini oshirib va takomillashtirib borish zarur. Chunki, olyi bilim dargohida oigan bilimlari etarli bo'lmay qoladi. Bu o'z ustida ishslashlar, izlanishlar, yaratishlarning asosida uslubiy ishlar yotadi. SHuning uchun ham muhandis-pedagoglardan o'z mustaqil ishlarni tashkillashtirishda, ularni ilmiy asosida tashkil etish lozim.

Ma'lumki, o'quv muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayoni ta'limi, tarbiyaviy jarayon bilan chambarchas bog'langan. SHuning uchun ham muhandis-pedagoglar o'z ishlarni ilmiy asosida tashkil etishda ularning quyidagi tarkibiy qismlari (elementlari) tadbirlarini amalgalga oshirish zarur:

- o'quv jarayonida o'quvchilarni davr ruhidagi g'oyaviy saviyasini oshirish, ularda milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish;
- o'quv jarayoniga fan va texnikaning sifat yutuqlarini joriy etish;
- o'quv jarayonini tashkil qilish shakllarini maqbullashtirish, ya'ni dars turlarini qo'llash (dars, birlashgan darslar) ilg'or ishlab chiqarish ustalari bilan birlgilidagi darslar;
- ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni maqbullashtirish (o'quvchilarda bilimga bo'lgan chanqoqlik, qiziqishlarni boshqarish, tashkillashtirish);
- o'quv jarayonini texnikaviy ta'lomitini maqbullashtirish; o'qituvchi va o'quvchi mehnat sharoitini maqbullashtirish.

Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari

Ta'lim muassasasining pedagog va muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda imkoniyatlari nihoyatda ulkan. Ammo ularni yagona maqsadga yo'naltirish, ular faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish ta'lim muassasasi rahbaridan chuqur bilim va tajribani talab qiladi.

Pedagog kadrlarni malakasini oshirish tizimida ta'sirchanligi va ularga yujinligi, vaqt, kuchni, moddiy resurslarni iqtisod qilish hamda boshqa shartlardan qulaylik bilan ajralib turgani o'z ish joylarida, ya'ni ta'limga muassasida malaka oshirishdir. Ta'limga muassasasida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish o'z ichiga quyidagilarni oladi: metodik ishlar, ishlab chiqarish kengashlari; ilmiy-amaliy seminar, konferensiyalar; pedagogik o'qishlar; unumta'limga fan va maxsus fanlar metodik komissiyalari; ilg'or quribalarни o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; darslarga kirish va ta'lil qilish; ochiq ko'rgazmali darslar tanlovlari, chet ellar bilan hamkorlik; kompyuter va axborot, informatsion-texnik vositalar orqali bilim, tajriba o'rganish va masofada malaka oshirish, kollej rahbarlarining pedagoglar bilan yurka va jamoaviy metodik ishlari va boshqalar. Bu tizimning buncha ko'p qirraligi pedagog kasbining murakkab va jamiyatda muhim ijtimoiy shuhamiyatga molikligidan dalolat beradi.

Pedagog mahorat rus tili lug'atida «biror sohada mohirlik darajasi» deb talqin etiladi.

Pedagog mahorat tushunchasiga yagona ta'rif ham yo'q, chunki ba'zi mualliflar bu fazilat – pedagogning yagona xususiyatlari deb hisoblashsa, boshqalar bu bilim, ko'nikma, malakalar ekanligini aytadi, uchinchilari-bu ikkalasini birlashtiradi, xususiyatlarini aysts, boshqa hollarda faoliyatni amalga oshirish darajasini aytadi va hokazo.

Pedagog mahoratining asosi ilk davrdayoq pedagogning tegishli bilim yurtida tayyorgarligida shakllanadi. SHuning uchun mahorat asosi bo'lib, yuqori kasb mahoratining zarur, ammo etarli bo'lмаган sharti hisoblanadi.

Ta'limga muassasasida ishlashning birinchi yilidanoq pedagog tajribaning intensiv shakllanishi boshlanadi, uning boshi pedagog amaliyot davriga to'g'ri keladi. Aynan pedagog faoliyat tajribasi pedagog oliy o'quv yurti bitiruvchisi ta'limga mobaynida olmagan narsalarini to'ldiradi va mujassamlashtiradi. Unda kasbiy-pedagog faoliyatini amalga oshirish tajribasi, ijodiy faoliyat tajribasi, shaxs fazilatlarini namoyon etish tajribasi birlashtiriladi va uyg'unlashtiriladi. Amaliy pedagog faoliyat jarayonida barcha oingan bilimlar takomillashadi, shaxs fazilatları va pedagogik qobiliyatlar rivojlanadi, kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanadi. O'z malakasiga ko'ra mohir pedagog darajasiga ko'tarilguncha bir necha yil o'tadi.

Pedagogning bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik mahorati shularining tarkibiy qismi sifatida 2 darajada bo'lishi mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida va kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida egalangan-pedagogik tajriba jarayonida.

Ya'ni birinchi holda pedagog oliy ta'limga muassasalarida o'qish paytida olingan boshlang'ich pedagogik tajriba bo'lishi mumkin, ikkinchi holda kasb-amaliy kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida olingan pedagogik tajriba bo'лади.

Albatta, birinchi daraja qancha yuqori bo'lsa, ikkinchisiga erishish oson, pedagogik mahoratga erishish qisqa bo'ladi.

Shakllanishi lozim bo'lgan pedagog mahorat poydevori quyidagi asosiy tarkibiy qismalarni qamrab oladi: pedagogning shaxsi, bilimlari va pedagogik tajribasi, bunda har bir tarkibiy qism o'zlashtirilishi mumkin. Demak pedagog mahorat asoslari har bir pedagogda shakllantirilib, pedagog mahorat darajasiga ko'tarilishiga imkon beruvchi negizni yaratib berishi mumkin.

Amaliy faoliyatda amalga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy etuklikning belgisidir.

Pedagog mahoratining to'rtta mustaqil elementini ajratib ko'rsatish mumkin:

- O'quvchilar jamoaviy va shaxsiy faoliyatini tashkil qila olish mahorati;
- Ishontirish mahorati;
- Bilimlarni berish va faoliyat tajribasini shakllantirish mahorati;
- Pedagogik texnikani egallash mahorati.

Demak, pedagogik mahorat faoliyat rivojlanishining, pedagogik texnologiyani egallashning yuqori darajasini ifodalab, shu bilan birga pedagogning umuman shaxsini, uning tajribasini, fuqarolik va kasbiy o'rnnini ham ifodalaydi.

Pedagogik mahoratga erishish usullari:

Pedagogik mahoratga erishish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Malaka oshirishning turli shakllarida ta'lrim olish;
2. Mustaqil ravishda o'z pedagogik bilimlarini oshirish;
3. Ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va ulardan foydalanish;
4. Shaxsiy pedagogik tajribani tahlil etish va umumlashtirish;
5. Metodik hay'at, sho'ba va birlashmalar ishida ishtirok etish;
6. Ochiq darslarga kirish va udlarni tahlil etish, o'zaro darslarga kirish;
7. Pedagogik o'qishlar, konferensiylar va seminarlar ishida ishtirok etish;
8. Pedagogik murabbiylik;
9. Metodik ishlanmalar tayyorlash va boshqalar.

Pedagogik mahoratni oshirish manbalari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog kadrlari amalga oshiradigan uslubiy ishlari juda xilma-xil bo'lib, ularning quyidagi turlari mavjud:

- Jamoaviy uslubiy ishlari: pedagogik kengash, pedagogik o'qish, uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik tajribalar, muammoli seminarlar, ilmiy amaliy konferensiylar.
- Y akka tartibdagi (shaxsiy) uslubiy ishlari: rahbar, pedagog va tarbiyachikdrlarining mustaqil uslubiy ishlari; rahbar, pedagog, tarbiyachi kadrlarining o'z ustida mustaqil ishlashi; rahbarlarning pedagog kadrlar bilan yakka tartibdagi uslubiy ishlari.
- O'quv-uslubiy (pedagogika) xonasi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalaridagi uslubiy ishlar tizimi

O'quv muassasalarida bajariladigan uslubiy ishlarning asosiy vazifalari quyidagilar:

-o'quv muassasasi muhandis-pedagoglarining g'oyaviy siyosiy, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish;

-o'quvchilarni davr talabida tarbiyalash va ta'lim mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish;

-ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash va umumlashtirish hamda kasbiy tayyorgarlikdagi o'zaro birligini ta'minlash;

-o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilg'or pedagogik, ishlab chiqarish va fan texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish va tadbiq etish;

-ilmiy uslubiy ishlarini amalga oshirish yo'l-yo'rqlarini o'rganish va amalga oshirish.

Ilmiy uslubiy ishlar muhandis-pedagoglar faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, uni bajarish o'quv muassasasi pedagog hamkorlarining hammasi bajarishi shartdir.

SHunday qilib, pedagog faoliyati ilmiy asosida tashkil etish deganda o'quvchilarning, muhandis-pedagoglarning ish sharoitini yaxshilash, o'qitish tashkil qilishni va usullarini takomillashtirishni, bunga fan va texnika yutuqlarini tadbiq etish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishni ta'minlash, tarbiyani shakllantirishga qaratilgan uslubiy va tashkiliy qurumalar tadbirini tushunamiz.

Uslubiy ishlar mazmuni

O'quv muassasalarida amalga oshiriladigan uslubiy ishlar ikki turga bo'linadi: jamoaviy va shaxsiy.

Jamoaviy uslubiy ishlarni o'quv muassasalaridagi pedagogik kengash (ped. sovet), uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik va amaliy tajribalar manbai, muammoli seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar (muhumanlar), pedagogik o'qishlar orqali amalga oshiriladi.

Shaxsiy uslubiy ishlarga o'quv muassasalardagi har bir, o'qituvchiga injener-pedagog, ustalarning o'z malakalarini oshirish ustida osib borilayotgan himmatsiz mehnati tushuniladi.

Uslubiy ishlar asosan dars berishda o'quv jarayoni takomillashtirish, unga yangi usul va vostalarni qo'llashni amalga oshirishni mo'ljallangandir.

O'quv muassasidagi keng qirrali va xilma-xil uslubiy ishlarni o'quv muassasidagi o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini tashkillashtiradi. YA'ni, o'quv muassasi bo'yicha uslubiy ishlar rejasini tuzadi, ammo umumiy mukofotlarni direktor olib boradi.

Jamoaviy uslubiy ishlar mazmuni va tashkil qilish

1. Pedagogik kengash (ped.sovet). Pedagogik kengash o'quv muassasining asosiy organi bo'lib, u o'quv muassasidagi asosiy masalalarni

muhokama etish, xulosalar qabul qilish uchun tuzilgan bo'lib, «Pedagogik kengash haqidagi Nizom» asosida faoliyat ko'rsatadi, va yillik plan asosida ish yuritadi. Pedagogik kengash ish rejasida asosan quyidagi masalalar yoritiladi va amalga oshiriladi: o'quv muassasasi pedagog jamosining o'tgan davrda bajarilgan ishlar natijasi va oldindan turgan vazifalar; uslubiy ishlar rejasи va xodimlarning malakasini oshirish, ustalarning tarbiyaviy ish rejasи, yarim yillik, yillik imtihon natijalari; ta'til vaqtlarida o'quvchilar bilan sport ishlarini tashkil etish; biblioteka holati; ishlab chiqarish amaliyoti natijalari va boshqa ko'p masalalar pedagogik kengash ishida yil mobaynida tasdiqlanadi va har oyda bir marta o'tkaziladi. Pedagogik kengash ish rejasidagi har bir masala bo'yicha ma'sul xodim tayinlanadi va u bu masalani kengashga tayyorlaydi, kerak bo'lsa, bu masalani tayyorlashga boshqalarni ham jalb qilishi mumkin.

Pedagogik kengash qarorini rais-direktor va kotib qo'l qo'yib tasdiqlaydi. Kengash qarorining bajarilishini direktor va uning o'quv ishlari bo'yicha muovini nazorat qilib boradi.

Pedagogik kengash xujjatlari: ish rejasи, bayonnomalar, ma'ruzalar va qarorlar direktor muovinida saqlanadi.

Uslubiy komissiyalar:

Uslubiy komissiyaning asosiy vazifasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilarga, injener-pedagoglarga, ustalarga amaliy-uslubiy yordam berishdir.

O'quv muassasida uslubiy komissiyalar, tayyorlov yo'nalishlari, fanlar bo'yicha va amaliyotlar bo'yicha tashkil qilinishi mumkin. Uslubiy komissiya tarkibi va soni pedagogik kengash tavsiyasiga ko'ra direktor buyrug'i bilan tayinlanadi. Uslubiy komissiya tarkibiga malakali o'qituvchilar, ustalar kiradi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va o'quv muassasalarida fanlar bo'yicha uslubiy komissiya tuziladi: fizika va elektrotexnika; ximiya va biologiya; o'zbek va rus tili; tarix va boshqalar, umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar. Ba'zi hollarda uslubiy komissiyalar tuzishi mumkin fanlarni guruhlashtirish bo'yicha, misol uchun, tabiiy fanlar: fizika, ximiya, biologiya; gumanitar fanlar, maxsus fanlar va hokazo.

Uslubiy komissiyalar o'z fanlari, sikl fanlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tadbiq etish, o'qitish uslub, vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, fanlarning ketma-ketlikda o'tishini belgilash, o'quv uslubiy materialini muhokama qilish va o'quv dasturini o'rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ishlar ro'yxati va ishlab chiqarish texnologik xujjatlar hamda nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, texnik vositalardan samaradorli foydalanish va boshqa muammolarni shug'ullanadi.

Pedagogik kengash muassasasining o'quv jarayoni va uslubiy ishlarini muhokama etib qaror qabul qiluvchi kengashdir.

Pedagogik kengash a'zolari: muassasasi direktori (rais); uning muovinlari, o'quv bo'lim mudiri, uslubiy komissiya raislari va etakchi muhandis-pedagoglar, katta ustalar, kasaba birlashmasi va yoshlар ittifoqi raislari, ilmiy tadqiqot instituti va ishlab chiqarish korxonasidan etakchi mutaxassislar. Bu tarkibdagi kengash a'zolari ko'rildigan masalalarni, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayon masalalarni, o'quv ishlab chiqarish jarayoni hamda uslubiy ishlarga oid muammolarni hal qiladi va tavsiyalar qabul qiladi.

Pedagogik kengashning asosiy uslubiy funksiyasi o'quv muassassida uslubiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar qabul qilish, kasbiy malakalarini oshirish ish rejalarini tasdiqlash va xakozolar.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini ilm o'quv muassasasining uslubiy ishlar ish rejasida amalga oshiradi.

Pedagogik kengashning hamma a'zolari o'quv-tarbiyaviy jarayonga, uslubiy ishlarga oid masalalarni uning ish rejasiga taklif etishi mumkin.

Pedagogik kengashning qarori o'quv muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va qarorni hamma bajarishi shart.

Metodik kengashlar-bu jamoaviy uslubiy ish turi bo'libina qolmay balki alohida muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi (pedagogik, uslubiy).

Metodik kengashlarning-instruksiyali, axborotli va hisobotli turlari mavjud.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar - o'qituvchilar tomonidan va boshqa mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga mo'ljallangan mavzu bo'yicha qilingan nazariy va amaliy ishlar natijasining muhokamasi, qaror, tavsiyalar qabul qilish.

Pedagogik o'qishlar - ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va tadbiq etish maqsadida o'tkaziladi hamda o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid masalalarni muhokama qiladi.

Pedagogik o'qishlar tashkil qilishda o'quv muassasalarida ko'rgazmalar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Didaktik vositalar o'quv uslubiy qu'llanmalar o'quvchi ish rejalaridan namunalar, darslar rejasi, konspekti, uslubiy qu'llanmalar va boshqalar.

Pedagogik o'qish jarayonida tashkiliy ko'lamda eng yaxshi ma'ruza tundob olib uni tuman, viloyat pedagogik o'qishlarga tavsiya etiladi va chop otashga tavsiya etiladi.

Ilg'or pedagogik tajriba-asosan o'quv muassasasi muhandis-pedagoglarning pedagogik mahoratlari oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ilg'or pedagogik tajribalar o'quv muassasasida va yana boshqa joyda o'rganilishi va uchitishli mumkin.

Muammoli seminarlar - bu seminarlarning asosiy vazifasi ba'zi muammolarni chuqurroq o'rganish bo'lib, bunda muhandis-pedagoglar, yotalar ma'ruzalar o'qishadi va muhokama qilinadi.

Uslubiy komissiyalar-o'quv muassasasida fanlar, ya'ni bir-biriga yaqin fanlar bo'yicha eng kamida beshta muhandis-pedagog va usta bo'lgan taqdirda tuzilishi mumkin, ba'zi hollarda chilangarlik, metallarga ishlov berish mutaxassisari bo'yicha ham tuzilishi mumkin.

Agarda o'quv muassasasida bitta fandan 3 dan ortiq muhandis-pedagoglar bo'lsa fan bo'yicha ham tuzilishi mumkin. Masalan: materialshunoslik, matematika, fizika va boshqalar. Uslubiy komissiya raislari eng tajribali o'qituvchi, ustalardan shakllanadi.

Uslubiy komissiyalar o'z fanlari, maxsus fanlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tadbiq etish, o'qitish, uslubiy vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, fanlarning ketma-ket o'tilishini belgilash, o'quv uslubiy materiallarni muhokama qilish va boshqalar bilan shug'ullanadi.

Fanga oid muammolarni uslubiy komissiyalar hal qiladi. Ya'ni ular: o'quv muassasalarini o'rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ro'yxati va mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik xujjatlari; nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, o'quvchilarning o'zlashtirishini tahlil etish, muhokama etish; ilg'or pedagogik, ishlab chiqarish tajribalarini o'quv jarayoniga tadbiq etish, texnik vositalardan samaradorlik bilan foydalanish va boshqalarni amalga oshiradi.

Uslubiy komissiyalar o'z ishlarini istiqbolli tematik va ish rejalarini asosida amalga oshiradi va bu rejalarda asosiy masalalar bo'lib quyidagilarni rejalashtirish zarur: yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, imtihonlarga tayyorgarlik, o'quvchilar malakasini oshirish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, ma'ruzalar mavzularini aniqlash, referatlar tematikasini belgilash, tashkiliy tadbirlar, ochiq darslar, ta'lim, o'zaro darslar kirish va boshqalar.

O'qituvchi va muhandis-pedagoglarning shaxsiy uslubiy ishlari (mustaqil) va uning mazmuni

Muhandis-pedagogning maxoratini uning tinimsiz ishslash, maqsadga yo'naltirilgan tizimli ijodiy mehnatining natijasidir. SHuning uchun ham o'qituvchi agarda o'z ustida ishlab bormasa, uning o'qituvchilik xususiyati yo'qolib boradi. Bu bo'imasligi uchun, ya'ni u har doim o'z fani mutaxassisligi bo'yicha maxsus va pedagogik bilimlarini oshirib borishi kerak. Agarda, u o'zining tajribasi bilan cheklanib qolsa ham bo'lmaydi.

Pedagogik mahoratini oshirib borishning majburiy xarakteridan biri, o'z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashishga va yangilikka intilib borishi kerak.

Pedagoglarning o'quv tarbiyaviy jarayonidagi faoliyat va pedagogik mahoratini oshishi ko'p jihatdan u ishlaydigan muhitga, jamoasining shakllanganligiga ham bog'liq.

Kasb-hunar ta'limi tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirish turlariga: malaka oshirish kurslari va o'z ustida mustaqil ishslash (shaxsiy) kiradi. Bular o'z navbatida uzviy bog'langan.

O‘z ustida ishlashning eng yuqori shakliga o‘qituvchilarning ilmiy ishi kiradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarida o‘quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishni ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning, injener-pedagoglarning o‘z ustida mustaqil ishlab o‘zlarining malakalarini oshirib borish bilan bog‘liqdir. SHuning uchun ham ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir xodimdan o‘z ustida mutaqil ishlash ish rejasи bo‘lishini talab qilinadi. Bu ish rejasи quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi qabul qilingan:

I. Siyosiy-g‘oyaviy darajasini oshirib, siyosiy adabiyotlar, muammoli seminarlarda faol qatnashish, kuzatishlarda qatnashish.

II. Pedagogik malakanı oshirish, fanlar bo‘yicha ilmiy-amaliy, uslubiy adabiyotlarni o‘qish, dokladlar yozish, ochiq darslar o‘tkazish.

III. Pedagogik bilim va uslubiy tayyorgarligini oshirish.

IV. Ma’naviyat va nafosat ko‘rsatkichlarini shakllantirish.

Mustaqil o‘z ustida ishlash va uslubiy ishlash asosan quyidagi to‘rt bo‘limidan iborat.

1. G‘oyaviy-siyosiy ma’rifiy darajasini oshirish

2. Ilmiy-tehnikaviy bilimlarni takomillashtirish

3. Pedagogik bilimi va uslubiy tayyorgarligini oshirish

4. Ma’naviyat va nazorat ko‘rsatgichlarini shakllantirish

Mustaqil ishslash orqali o‘z malakasini oshirishni yana boshqa turlaridan hiriga seminarlarga, pedagogik o‘qishlarga, konferensiyalarda o‘z ilmiy natijalari, amaliy ish tajribasiga tayyorgarlik ko‘rish xisoblanadi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quv metodik (pedagogika) xonasining asosiy vazifalari:

• Ilg‘or pedagogik tajribaning targ‘ib qilinishini tashkil etish

• Umumta’lim, maxsus va amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilariga pedagogik mahorat va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat sifatini oshirishda yordam ko‘rsatish

• O‘quv-tarbiyaviy va metodik ishlar masalalari bo‘yieha materiallар to‘plash va ularni tartibga solish

• Kasb-hunar kollejida ilmiy-pedagogik axborotlar to‘plash

O‘quv metodika xonasining faoliyat mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:

• Kasb-hunar kolleji xodimlarining o‘zaro pedagogik tajriba almashishi bo‘yicha seminarlar tashkil etish.

• Pedagogik va boshqa mavzularda ma’ruzalar tashkil etish.

• Metodik ko‘rgazmalar tashkil etish.

• Pedagogik mashg‘ulotlar tashkil etish.

• Kasb-hunar kollejida pedagogik o‘qishlar tashkil etish.

• Umumta’lim, maxsus fanlar va amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilari uchun pedagogik maslaatlardan tashkil etish.

• Pedagogik yangiliklar bo‘yicha konferensiylar tashkil etish.

▪ Kasb-hunar kollejida muayyan mavzular bo'yicha metodik ishlar yakuniga bag'ishlangan konferensiyalar tashkil etish.

▪ Kab-hunar kolleji xodimlarining pedagogik mehnat fidoiylari bilan uchrashuvlar tashkil etish.

O'quv metodik xonasi quyidagilar bilan jihozlansa maqsadga muvofiq bo'ladi:

▪ Namunaviy hamda ishchi o'quv rejalar va dasturlar

▪ Rejalashtirish, hisobga olish va hisobot xujjalarning namunalari

▪ O'quv xonasi, laboratoriya va ustaxonalarni jihozlash me'yorlari, kataloglar, ro'yxatlar, pasport

▪ Me'yoriy va yo'riqli xujjalarning nizomlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va hokazo

▪ Kasblar bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish ishlari ro'yxati

▪ Ilmiy pedagogik adabiyotlar, pedagogik jurnallar, gazetalar va boshqa davriy nashrlar

▪ Metodik ishlanmalar, o'qituvchilarning ma'ruzalar matnlari

▪ Yo'riqlar va texnologik xaritalar to'plami

▪ Nazariy va amaliy kasbiy ta'lif fanlari bo'yicha test topshiriqlari to'plami

▪ O'MKHT ilmiy va o'quv metodik tashkilotlarining metodik tavsiyalari

▪ Ta'luming «faol» shakllari va metodlardidan foydalanish bo'yicha materiallar

▪ Darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ma'lumotnomalar.

Pedagogik mahorat ko'rsatgichlari va mezonlari

Amaliy faoliyatda amlga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy etuklikning belgisidir, lekin uning darajasini pedagogik vazifalar qanday hal etilishi va pirovardida qaysi natijalarga erishilishidan ko'rish mumkin.

Olimlar pedagogik mahoratni baholashning besh darajali tizimini taklif qiladi:

1-reproduktiv; pedagog boshqalarga o'zi bilgan narsasini va o'zi bilganicha gapirib bera oladi.

2-adaptiv; pedagog o'zining ma'lumotini faqatgina uzatib qolmay, ishlayotgan ob'ektning xususiyatlariiga muvofiq ravishda o'zgartira oladi;

3-lokal-modellashtiruvchi; pedagog ma'lumotni faqat uzatib va muvofiq holda o'zgartiribgina qolmay, ayrim masalalar bo'yicha bilimlar tizimini modellashtirishi ham mumkin;

4-bilimlarni tizimli modellashtiruvchi; pedagog o'z fani yuzasidan bilimlar tizimini shakllantiruvchi faoliyat tizimini modellashtira oladi;

5-faoliyat tizimli-modellashtiruvchi; pedagog shunday faoliyat tizimini modellashtira oladiki, u o'z navbatida o'quvchilarda zarur xususiyatlarni shakllantiradi.

Pedagog o'quv ishlaridagi mahoratini quyidagicha (ballarda) baholash taklif etiladi.

6	5	4	3	2	1	0
Juda	Yuqori	O'rtadan	Past	O'rtacha past	Past	Juda past

Pedagog mahorati darajasining umumiy baho'anishi biror mezonlarga tayanmaydi. «O'rtadan past» darajasi past bo'lganda «O'rtachadan yuqori» darajasi ham bo'lishi kerak, unda pedagog pedagogik mahorat darajasiga yaqinlashayotgan, lekin hali unga etmagan bo'ladi. Aftidan, bunday atama aniqroq bo'ladi, chunki bu darajalar ichida faqat ikkita yuqori daraja (besinchini va oltinchini) pedagogik mahorat darajalari bo'ladi.

Kasbiy mahorat bu mahoratni o'quv-tarbiyaning hamma shakllarini tashkil qila olish, uni maqsadga qaratib shaxsn barkamolligi,, dunyoqarashi kabilarni rivojlantirishga qarata olishdir.

Pedagogik mahorat murakkab tizimiga ega bo'lgan turidir. U o'z tartibini o'qituvchi shaxsning kompleks xususiyatlarini olib o'z kasbiy faoliyatি darajasida o'zi tashkil qila olishdir.

Metodik ishlarni to'g'ri tashkil qilishpedagogik mahoratni oshirishning muhim vositasi.

Yuksak pedagogik mahoratga o'qituvchi o'sha vaqtida erishadiki, qachon umumpedagogik va metodik tayyorgarlikni ta'lim-tarbiyaga ijodiy yondashish, o'ziningkasbiy bilimlarini va ko'nikmalarini o'z faoliyatining doimiy tahlil qilish bilan qo'shib bora olsa.

Ma'ruzaga tayyorgarlik

I. Ma'ruzaga yozish quyidagi strukturada bajariladi:

1. Ma'ruzaga yozishga tayyorgarlik: ma'qruza mavzusini tanlash
2. Pedagogik adabiyotlarni, turlari temaga oid o'qish
3. O'z materiallarini tartibga solish
4. Xulosalarни yozishni o'ylash, shakllantirish
5. Ma'ruzaning plan prospektini tuzish

II. Ma'ruzaning (maqola, broshyura) namunaviy tuzilishi.

1. Kirish qismi

2. O'quv tarbiyaviy jarayonning hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish masalalari

3. Muammoning nazariya va amaliyotdagи holati
4. Mavzuning dolzarbligi

III. Asosiy nazariy va amaliy natijalar xususiyati.

1. Ta'lim tarbiya sifatini oshirish vositalarini tahlil etish va asoslash
2. Pedagogik vositalarni nazariy asoslash
3. Pedagogik tajribalar natijasida olingan natijalarni ko'rsatish (tablitsa, grafik, kompyuter)

4. Oldingi holatdan farqi
 5. Izlanishdagi qiyinchiliklar
 6. O'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga oid yo'l-yo'rqlar

IV. Xulosalar va takliflar

IV. Xulosa Va takihai.

Qilingan, olingen ish tajribalarini umumlashtirish, olingen natijalarini tadbiq qilish bo'yicha tavsiya etish.

Jadval – 7

Uslubiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari:

1. O'quv jarayonini takomillashtirishning ilmiy asoslari
 2. Muhandis-pedagoglarning pedagogik mahoratini rivojlantirish
 - 3.

Oy, kün	Pedagogik kengashi	Instruktiv-uslubiy kengash	Ilmiy-analitik konferensiya	Uslubliy komissiyyalar	
				Umum ta'lim fanlar	
				Gumanitar fanlar	
				Umum kasbiy fanlar	
				Mahsus fanlar	
				Ishlab chiqchiqarish ta'limi	
				Ishlab chiqparish amaliyoti	
				Ochiq darslar	
				Ilg'or pedagogik tajribalar	
				Seminar-analiz o't	
				Pedagogik o'qishlar	
				Siyosiy o'qishlar	
				Eslatma	

**2014 / 20152 o'quv yili uchun «Teriga ishlov berish» tayyorlov
yo'nalişidagi ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha (muhandis-
pedagoglar, ustalar) uslubiy komissiyasining
ish rejasি**

Mavzu: Darsni takomillashtirish

T/R	Ish mazmuni	Ma'sul	Izoh
Avgust			
1	Me'yoriy xujjatlar. YAngi o'quv yildagi uslubiy komissiyaning vazifalari	Uslubiy komissiya raisi	
2	YAngi o'quv rejalar, dasturlar, o'quv dasturiy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritish	Pedagoglar, ustozlar	
3	Istiqlolli-tematik rejalarini ishlab chiqish va yo'ldirish	Uslubiy komissiya	
4	Teriga ishlov berish bo'yicha ustasi kasbi bo'yicha ishlab chiqarish ishlari ro'yxati muhokamasi	Katta ustoz	
Sentyabr			
1	Uslubiy komissiyaning yillik ish rejasini tasdiqlash	Uslubiy komissiya raisi	
2	Ustozlarning istiqlolli-tematik ish rejalarini (yarim yillik) muhokamasi	Ustalar	
3	O'z bilimini oshirish rejalarini tasdiqlash	Uslubiy komissiya rejasি	
4	Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va tadbiq etish rejasini tasdiqlash	Pedagoglar, ustalar	
Oktyabr			
1	Hozirgi zamон darslariga qo'yiladigan talablar	<i>O'quv ishlari bo'yicha direktor muovini</i>	
2	Ishlab-chiqarish ta'limi va maxsus fanlar bo'yicha darslarda faol usullarni qo'llash	Uslubiy komissiya raisi	
3	Ochiq darslar muhokamasi: 1. Tekis yuzalarga ishlov berish (Abbosov T.)	Pedagog	
Noyabr			
1	Maxsus texnologiya va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida iqtisodiy tarbiya	Uslubiy komissiya raisi	
	O'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini dars jarayonida o'qitish	Pedagoglar	
	Texnik vositalarni nazariy va amaliy darslarda qo'llash	Uslubiy komissiya raisi	

**«Ishlab chiqarish ta'limi» bo'yicha muhandis-pedagog
Turg'unov T.ning o'z bilimini oshirish va mustaqil uslubiy**

ISHLAR REJASI

T.r.	Ish mazmuni	Muddati	Izoh
I.	G'oyaviy-siyosiy darajasini oshirish I.A. Karimovning asarlarini o'rganish O'quvchilarning umumta'lim va kkasbiy fanlar bo'yicha bo'limlarga qo'yiladigan talablar (referat yozish) Iqtisodiyot va siyosatga oid seminarlarda qatnashish	Sentyabr, Iyun Aprel Har doim	
II.	Pedagogik malakasini oshirish Darslarni takomillashtirishga oid adabiyotlar, o'qish mavzu bo'yicha ma'ruba tayyorlash Ochiq dars o'tkazish	Sentyabr, May Fevral Aprel	
III.	Fan bo'yicha ilmiy-nazariy bilim darajasini oshirish Raqobatdosh kadrlarni tayyorlash bo'yicha uslubiy tavsiyalarni o'rganish Ko'rsatmali qo'llanmalar tayyorlash	Y'il davomida Mart	
VI.	Ma'naviyat va uslubiy darajasini oshirish 4.1. «Aqliy mehnat madaniyati» mavzusida suhbat o'tkazish va x.k.	Oktyabr	

Umunkasbiy fanlar bo'yicha uslubiy komissiya ish rejasi

Mavzu: Nazariy ta'lim darslarini takomillashtirish

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Bajarish muddati	Mas'ul
1	Komissiyaning ish rejasi muhokamasi Kalendar-tematik rejalarini tasdiqlash	Sentyabr	Rais O'qituvchilar
2	Elektrotexnik fanlar bo'yicha ochiq darslar muhokamasi Elektrotexnika bo'yicha metodik ishlanma muhokamasi «darsda texnik vositalari majmuasidan foydalanimish»	Oktyabr	O'qituvchi Elektronika o'qituvchilar
3	Darslarga o'zaro kirish natijalari muhokamasi Yangi o'quv uslubiy adabiyotlar muhokamasi Test savollari muhokamasi va boshqalar	Dekabr	O'qituvchilar ustalar Kutibxonachi

11.2. O'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish muammolari

Ta'lim-inson faolligini belgilaydigan muhim bir tapmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida inson faoliyat bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish zarur. O'z-o'zidan ko'rini6 turibdiki, bu vazifalarni ilmiy texnika jarayonining o'zgarishi bilan bog'liq ta'limning yangi nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko'rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy puh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqla6 qolgan holda yangilarni yaratish va amaliyotda qo'llash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bog'liq. Bu yo'nalish keng qamrovli bo'lib, uning sohalari kengayi6, mazmuni takomillashi6 bormoqda, ya'ni u ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'limning butun

jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o'quv jarayoning maqsadra muvofiq tashkil qilish hisobiga uni individuallashtirishni ko'zda tutadi.

"Pedagogik texnologiya" to'g'risida ko'plab tushunchalar mavjud bo'lib, ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Texnologiya-bu sa'nat, mahorat, ko'nikma, metodlar yig'indisi.

Texnologiya-bu inson faoliyati va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan madaniy tushuncha.

Texnologiya-bu texnik jixatdan ahamiyatli sifat va qo'biliyatning intellektual qayta ishlanishi.

Texnologiya-bu qandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig'indisi.

Texnologiya-bu o'quv jarayoniga tashkiliy, maqsadli pedagogik ta'sir o'tkazish natijasi.

Texnologiya-bu o'quv jarayonini amalga oshirish texnikasi.

Texnologiya-bu ta'limga maqsadiga erishishning kafolatlangan vositasi.

Texnologiya-bu rejalashtiriladigan natijalarga erishish jarayonining bayoni.

Texnologiya-bu amaliyotga joriy qilinishi kerak bo'lgan ma'lum bir pedagogik tizimning loyihasi.

YUNESKOning bergen ta'rifiga ko'ra: Pedagogik texnologi-inson va texnika resuslarini hisobga olgan holda butun ta'limga jarayonini va bilimlarini o'zlashtirishning baholashning tizimli metodi va samaraliroq ta'limga shakllariga erishish uchun ular o'rtaisdagi o'zaro ta'siridir.

Kasbiy pedagogika "darsligida shunday tavsif beriladi: Pedagogika texnologiya-bu pedagogika fani va maktab amaliyotini rivojlantirishda uzbekistoni saqlab qolgan holda pedagogika va metodikaning metodologik va intellektual vositalarini radikal ravishda yangilash.

Bizning fikrimizcha "pedagogik texnologiya" tushunchasi 6archa boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'liqligi tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazarat qilish yo'li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi. "Pedagogik texnologiya"ning ta'limga amaliyligini hamda tashkiliy-usluhiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tadbiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e'tiborini kuchaytirmoqda. "Texnologik" yo'nalihsiga turliqa qarashlar mavjud, ba'zi pedagoglar "pedagogik texnologiya" da ta'limga differensiyalashtirish vositasini ko'rmoqdalar, boshqalarini undagi kim mehnat sarflab yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari, "pedagogik texnologiya" ni barcha ta'limga oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga etkazish mumkinligi qiziqtirmoqda. Ba'zi pedagoglar ta'limga "texnologiya" lashtirish yordamida ommaviy ta'limga amaliyotida tub burilish yasashga umid bog'lagan edilar.

Pedagog texnologiyani amalga oshirishning umumlashgan ketma-ketligini quydagicha amalga oshirilishi maqcadra muvofiq bo‘ladi.

- talabalarning istiqboldagi faoliyatini tahlil qilish, ta’lim jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan maqcad va vazifalarini belgilash;
- umummehnat va kasbiy malakarni rivojlantirishda ta’lim vositalarini qo‘llashga oid ta’lim uslubi mazmuni ishlab chiqish;

-oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlarida talabalar tomonidan ta’lim vositalardan foydalanish texnologiyasini o‘zlashtirishlari uchun vaqt mezonini belgilash;

-talabalarda ko‘nikma va malakarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;

-talabalarda bilim ko‘nikma va malakalarning sifatini nazorat qilish bilan bog‘liq ob‘ektiv nazorat o‘tkazish va testlar tizimini ishlab chiqish;

-ishlab chiqilgan “pedagogik texnologiya” ni amalda sinash va uni o‘qiy jarayoniga tabbiq chiqish;

Keltirilgan bosqichlarning tavsifi ama‘lda o‘qituvchi faoliyatining davriy algoritmini ifodalaydi va ularning mos ravishda maqsadlar, aniq nazorat usullari butun ta’lim jarayonini qamrab oladi. Ushbu jarayon standartlashtirilgan ta’lim maqsadi asosida pedagogik tizim vositasida amalga oshiriladi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki pedagogika fanidan hap qanday pedagogik texnologiya asosini tizim tashkil etadi. Bunday pedagogik texnologiyani rejalashtirilgan samarasi uning qanday tizimlashtirilganligi va tuzilishiga bog‘liq:

Pedagogik tizim tushunchasi ko‘plab pedagog olimlar tomonidan tahlil qilingan bo‘lib , 80-yillar oxirigacha aniq bir to‘xtamga kelinmag'an.

Pedagogika tizim tushunchasi va uni tashkil etuvchi variant elementlarini birinchi bo‘lib akademik V.P.Bespalko asoslab berdi.

V.P.Bespalko ta’rifi bo‘yicha “Pedagogik tizim (PT) deganda ma’lum nisatlarga ega bo‘lgan shaxsnii shakllantirishga aniq maqsadli tashkilish pedagogik ta’sir ko‘rsatish uchun tajab etiladigan o‘zaro bog‘langan uslub, vosita va jarayon majmuasi tushuniladi”. Jamiyatning ustuvor qadriyatlarini shaxs shakllanishiga qo‘yiladigan talablar va uning maqsadini belgilab beradi.

Pedagogik texnologiya yaratilish bosqichlari akademik V.P.Bespalko tomonidan asoslangan bo‘lib. U ta’lim turi hamda tadbiq qilinishdagi shakli, darslik, metodik tavsisiyanoma, EHM dasturlaridan qat’iy nazar umuniy hisoblanadi. SHu asosda pedagogik texnologiyani loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

-birinchi bosqichda kasb ta’limi fakulteti talabalarning kelajakdagisi kasbiy faoliyatini tahlil qilindi.

Ushbu tahlilda talaba faoliyati istiqbolini qamrab olgan kelajak faoliyatida duch keladigan vazifalar aniqlab olindi.

-ikkinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlantrishning psixofiziologik asoslari; o'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqildi va ta'larning hap bir davri uchun uning mazmuni aniqlab berildi.

-uchinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarning tarkibiy qismlari, shakllantirish jarayoni; malaka kuchishi va moslashuvchanligi xususiyatlari, umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantrish jarayonida ta'limg vositalarini qo'llash texnologiyasi ishlab chiqildi;

-to'rtinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlantrish didaktik jarayonining eng muvofiq ta'limg shakllari aniqlandi. Uning natijasi ko'nikma va malakalarni rivojlantrish pedagogik tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni ishlab chiqildi;

-beschinchi bosqichda umummehnat va kasbiy malakalarni qo'llashiga oid ta'limg metodi mazmuni ishlab chiqildi, uning natijasi sifatida umummehnat ko'nikma va malakarni rivojlantrish jarayonida trenjerlardan foydalanish texnologiyasi yaratildi;

-oltinchi bosqichda ta'limg maqsadi asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantrishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda o'qyw qo'llanmalari mazmuni bilan umumlashtirildi, natijalar belgilangan ko'rsatkichlari darajasida ta'limg jarayoniga tadbiq etildi;

-ettinchi bosqichda-o'zlashtirish darajasini baholash mezonlariga va ta'limg maqsadlariga mos keluvchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini aniq nazorat qilish bilan bog'liq kuzatishlar o'tkazildi va testlar ishlab chiqildi.

-sakkizinchi bosqichda ta'limg maqsadlariga erishish imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlarining tuzilmasi va mazmuni shakllantirildi hamda talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantrishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi;

-to'qqizinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkich va mezonlari tajriba-sinov ishalari asosida sinab ko'rilib tuziladi va ta'limg jarayonining yakunlanganlik darajasi ($K>0,7$ ko'rsatkichga erishish maqsadida) tekshirildi. Bosqich natijasida loyiha tegishli tuzatishlar kiritildi.

Ko'nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko'ra tasniflash mumkin (5-shakl). Misol uchun, bir guruhni intelektual ko'nikma (eshitish qobiliyati, kitob bilan ishlash, insho yozish, reja tuzish, o'z ishini rejalashtirish, uni qulay tashkil etish) va malakalar (yozuv savotxonligi, ifodasi o'qish) tashkil qiladi. Ikkinchi gypuhga mehnat ko'nikmalari (chizmalar bo'yicha buyum yasay olish) va alohida avtomatlashgan mehnat operatsiyalari (arralash, qirqish, randalash, kesish malakalari) kiradi. Bu gypuhga hapakat va konstruktiv texnik ko'nikma va malakalar kiradi, bunda ikkinchisi hamma vaqt asbob va mashinalar bilan ishlashga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi guruhni jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalari (jismoniy tarbiya mashqlarini bajara olish) va malakalar (sakrash, suzish, arqonga chiqish) tashkil qiladi. Odatda gigienik ko'nikma va malakalarni ham alohida gypuh sifatida qaraladi.

Bundan tashqari malakalar murakkablik va avtomatlashganlik darajalariga ko'ra ham farqlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Uslubiy ish deganda nimani tushunasiz?
- 2.O'quv muassasalarida amalga oshiriladigan uslubiy ishlar necha turga bo'linadi?
3. Jamoaviy uslubiy ishlarni izohlang?
- 4.SHaxsiy uslubiy ishlarni izohlang?
- 5.Uslubiy ishlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

12-MAVZU: O'RTA MAXSUS, KASB HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA USLUBIY ISHLARNI TASHKIL QILISH ASOSLARI

12.1.O'rta maxsus, kasb hunar ta'lимида uslubiy ishlar maqsadi va vazifalari

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar tizimidagi islohot jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish , mehnat bozorida ishsizlarning paydo bo'lishi, mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi, kasbiy tayyoragarlikni tashkil qilishga yangicha yondashishni talab etdi. Kasb hunar kollejlari faoliyatining vazifalari va mazmuni o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kasbhunar ta'limiini tashkil etish va rivojlantirishga oid qarorlarida kasb hunar ta'limi mazmunini kichik mutaxassislar malakasi darajasiga qo'yiladigan talablar bilan belgilash hamda har bir tayyorlov yo'naliishi bo'yicha tarmoq davlat standartlari bilan belgilanadi.

Uslubiy ishlar – bu pedagogik tizim bo'lib, iqtisodiyotning hamma sohalariga kichik mutaxassislar tayyorlash uchun o'qituvchilarning pedagogik va kasbiy mahoratini oshirish ilg'or tajribalarini umumlashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv – tabiyaviy jarayonni maqsadga muvofiq tashkillashdir.

O'quv tarbiyaviy jarayonini samarali tashkil etish, malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni uslubiy ishlar bilan bog'liqdir.

Kasb -hunar ta'limalida amalga oshiriladigan uslubiy ishlarning asosiy vazifalarini

Davlat ta'lim standartlari asosida
o'quv -uslubiy ishlarni tashkilashtirish

Ta'lim muassasasi pedagogic jamoasining ma'naviy – ma'rifiy darajasi,
pedagogik malaka va kasbiy mahoratlarini oshirish

Bo'lajak mutaxassislarga ta'lim –tarbiya ხerish mazmuni, shakli va uslubini
tinimsiz takomillashtirib borish

O'quvchilarni o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiya birligini, umumta'lim va
kasbiy tayyorgarlik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash

Ilg'or pedagogik va ishiab – chiqarish tajribalari, fan va texnika yutuqlarini
chuqur o'rganish, umumlashtirish hamda o'quv –tarbiya jarayoniga tadbiq
qilish

O'quv –tarbiya jarayonini yangi didaktik materiallar va o'qitish
vositalari bilan ta'minlash

Ta'lim –tarbiya beruvchi kadrlarning kasbiy mahoratini
takomillashtirish

O'qituvchilarni kundalik ta'lim – tarbiya jarayoniga pedagogik
tomondan tayyorlash – bu uslubiy ishlarning asosiy maqsadi bo'lib, u
kundalik ta'lim – tarbiya ishlarni muvoffaqiyatli ravishda amalga oshirishga
zamin yaratadi. SHuning bilan birga bo'lajak mutaxassislar malakasini
shakllanishiha xizmat qiladi.

O'rta maxsus, kasb xunar ta'limi muassasasida tahlil olayotgan
o'quvchiga chuqur bilim berish va hunar o'rgatish o'qituvchidan yuksak
mahorat, o'z ustida timmay ishlashni taqozo etadi.

Uslubiy ishlarning mazmuni o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi ta'lim
muassasalarida tayyorlov yo'naliishlari bo'yicha malakali mutaxassislarini
tayyorlashda o'qituvchilarga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni
ta'lim jarayoniga qo'llashda yordam berish, ta'limga barcha yo'naliishlarini
kasbiy ta'lim bilan bog'lash, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni
hal etishda ilmiy uslubiy tavsiyalar berishni o'z ichiga oladi. Bizning
fikrimizcha, zamonaviy kasb hunar ta'lim muassasalarida uslubiy ishlarning

mazmunini asoslash vaqtida uning tashkilotchilari uslubiy ishlarni rejalashtirishdan avval har bir o'qituvchining uslubiy ehtiyojarini yoki individual uslubiy xohishlarini hisobga olishi muhimdir.

12.2.Uslubiy ishlarni tashkil qilish va amalga oshirish funksiyalari

Kasb hunar kollejlarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan uslubiy ishlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin.

1. Kasb hunar ta'limi mazmunini takomillashtirish:

- Davlat ta'lim standartlari talablari asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish ta'lim sifatini oshirish;
- O'qituvchilar va kasb ta'lim o'qituvchilariga o'z ixtisosligi bo'yicha o'quv dasturiy xujjatlarni yuritishda ilmiy uslubiy yordam ko'rsatish;
- O'quv dasturiy xujjatlarni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- Ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda kasb hunar kollejlarida ta'limni takomillashtirish bo'yicha o'tkaziladigan tajriba sinov ishlariga uslubiy rahbarlik qilish.

2. Kasb hunar ta'limi shakli va metodlarini takomillashtirish

- Kasb hunar kollejlarida o'quv tarbiya ishlarini takomillashtirish holatini o'rganish va tahlil etish;
- Kasb hunar kollejlarida uslubiy ishlarini tashkil etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish;
- O'quv tabiya jarayonida ta'limning yangi shakli va metodlarini qo'llash bo'yicha tajriba sinov laborotoriya ishlarini tashkil etish;
- Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar haqida ma'lumot bankini yaratish, ta'lim tizimini zaruriy axborotlar bilan ta'minlash;
- O'qituvchilarning ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajribalarni ommalashtirish;
- O'quvchilarni har xil fan tugaraklariga jaib etish, olimpiada va anlovzlarda qatnashishga tayyorlash.

3. Davlat ta'lim standartlari talablari asosida ta'lim jarayonini majmuaviy o'quv uslubiy ta'minlash:

- Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv tarbiya jarayonini majmuaviy uslubiy ta'minlash bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish;
- O'quv xonalari, laborotoriyalar, ustaxonalar, ishlab chiqarish amaliyoti xonalarinining pasportini tuzish;
- Kasb ta'limi o'qituvchilariga fan va kasblarning majmuaviy uslubiy ta'minoti bo'yicha yordam ko'rsatish;
- Ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan zaruriy o'qitish vositalarini baholash va tahlil etish;

- O'quv dasturiy hujjatlar, uslubiy adabiyotlar va o'qitishning boshqa zamонави техника vositalari bilan ta'minlash.

Ta'lim jarayonini majmuaviy o'quv uslubiy ta'minoti ixtisosliklar va o'quv fanlari bo'yicha ta'limgarayoni sifatli tashkil etish va loyihalashtirish uchun zaruriy materiallar bilan ta'minlab beruvchi tarkibiy qismidan iborat bo'ladi. Majmuaviy ta'minot ixtisosliklar, o'quv fanlari, ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti hamda davlat attestatsiyalar o'quv uslubiy majmuasi ko'rinishida ishlab chiqiladi.

4. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ulardan ta'limgarayonida foydalanish va keng joriy etish:

- Tashxis (diagnostika) asosida ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, o'rganish va shakllantirish, shuningdek, amaliyotga keng joriy etish, pedagogik ijodni rivojlantirish;
- Ilg'or pedagogik tajribani ishlab chiqish va tavsiflash bo'yicha kasb ta'limgarayonida kasb hunar ta'limi sifatini oshirish masalalari bo'yicha tajribaviy eksperiment ishlarini o'tkazish;
- Ilg'or pedagogik tajribalar haqidagi axborot materiallarini nashr etish;
- Ilg'or pedagogik kartotekasini yaratish;
- Ilg'or pedagogik tajribalarni amalga oshirish bo'yicha: pedagogik o'qishlar, turnirlar o'tkazish va eksperimental maydonchalarni yaratish.

5. Kasb hunar kollejlari o'qituvilarining kasbiy malakasini va pedagogik mahoratini oshirish:

- O'qituvchilar va kasb ta'limgarayonida kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirishni tahlil qilish, joriy va istiqbol rejalarini asosida izchil amalga oshirish;
- O'quv uslubiy seminarlar, mashg'ulotlar, konferensiylar, turli tadbirlar, ko'rgazmalar va ko'rik tanlovlarni tashkil etish;
- Mustaqil ta'limgarayonida olishlari uchun o'qituvchilar va kasb ta'limgarayonida o'qituvchilariga yordam ko'rsatish;
- Kasb hunar ta'limi barcha hodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun tayyorlashda ilmiy uslubiy yordam ko'rsatish;
- "Yosh o'qituvchilar maktabi" va "Murabbiylik maktabi" faoliyatlarini yuritish:

6. Umumta'limgarayonida kasbiy ta'limgarayonida o'rta sidagi uyg'unlikni ta'minlash:

- Umumta'limgarayonida kasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha ta'limgarayonida tarbiya olib boruvchi pedagoglar jamoasinining uslubiy xamkorligini ta'minlash;

- Har bir darsni kasbiy faoliyat bilan bog'lash, asosiy maqsadni kasbiy ta'limga qaratish;
- Darsda beriladigan zaruriy bilim hajmini belgilash; o'quvchilarga kerakli va zarur bilim va axborotlarni berish;
- O'quvchilarning ijodkorlik xususiyatlarini va intelektual qobiliyatlarini hisobga olish; ulami mustaqil ishlashga jalg etish yo'llarini izlash; o'quvchilarning darsga qiziqtirishning turli omillarini izlash va ishlab chiqish.

YUqorida ta'kidlab o'tilgan uslubiy ishlarni amalga oshirishda ta'lim muassasasining rahbari, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari va uslubchi ma'sul hisoblanadi.

Uslubiy ishlarni asosiy yo'naliшlarini amalga oshirish natijasida ta'lim muassasasida o'quv uslubiy ishlarni to'g'ri tashkillanadi va pedagoglar junioasining kasbiy, pedagogik darajasining oshishi hamda o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish jarayoni sifatiga ta'sir etish samaradorligini oshishiga olib keladi. Bunga esa uslubiy ishlarning quyidagi funksiyalarini amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Boshqarish funksiyasi – o'qituvchi va rahbar xodimlarning faoliyatini tahlil etish; o'quv jarayonini barcha yo'naliшlarida uslubiy ishlarni tashkil etishni loyihalash va rejalashtirish; uslubiy ishlarning yo'naliшlarini unlash, tashxis etish, dastur va rejalarni mosligini krib chiqish, umumlashtirish. Boshqarish funksiyasini ta'lim muassasasi ilmiy pedagogik kengashi, uslubiy kengash va kafedralar tomonidan amalga oshiriladi.

Texnologik funksiya – Davlat ta'lim standartlarida belgilab berilgan talablar asosida o'qituvchilar va rahbar xodimlarni ish yuritishini tahlil etish, pedagogik tajribani yo'iga qo'yish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishni tushkil etish, ommalashtirish hamda boshqarish tajribasini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.

Texnologik funksiya – bu ta'lim muassasalaridagi har xil muammolarning kelib chiqishi holatini o'rganish tahlil qilish orqali pedagoglarning shaxsiy tajribasini inobatga olgan holda, muammoni echish yo'llarini o'rganish hamda pedagogik va uslubiy adabiyotlarda ko'rsatilgan yo'llar orqali muammoni echish. Texnologik funksiyani ta'lim muassasasining barcha uslubiy birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik funksiya – ilg'or pedagogik tajribalarni va o'qituvchilar kasbiy mahoratni shakllantirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonini yangi uslubda olib borishga tayyorlash, qayta tayyorlash, pedagogik jamoani innovatsion jarayonga tayyorlash.

Pedagogik funksiyaning mohiyati ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirishi va uning natijalarining ob'ektiv holisona boshlay olish, ko'zlangan natijalarga erishishini kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatib, o'qituvchi va kasb ta'lini o'qituvchilari pedagogik texnologiyalarni mohiyatini to'g'ri tushunishi, har tomonlama

tahlil qilgan holda ilmiy asosda o'zlashtirishi, tadbiq etish yo'llarini qidirishi o'z ustida tinimsiz ishlashini amalga oshiradi.

Ilmiy funksiya – bu o'quv muassasasini rivojlanish dasturini loyihalashtirish, dasturga mos o'quv jarayonini tashkil etish. Me'yoriy va o'quv-uslubiy jixozlar yordamida tajriba – sinov jarayoni dasturini ishlab chiqish, tajriba – sinov jarayoni natijalarini ishlab chiqilgan mezonlar asosida tashxis etish.

Axborot berish funksiyasi – bu axborot fondini tashkil etish. Bu funksianing asosiy vazifasi kasb – hunar ta'limi muassasasi pedagogik xodimlarini fan – texnikaning so'nggi yutuqlari bilan tanishtirib borish. Buning uchun kasb – hunar kollejlari axborot kunlарini tashkil etishni tavsiya etamiz. Axborot kunlari ta'lim muassasasi miqyosida yoki har qaysi kafedralarda tashkil etish mumkin. axborot kunlарini tashkil etishda ta'lim muassasasi rahbari ma'sul bo'ladi, chunki axborot kunini samarali o'tishi uchun etarli shart-sharoit yaratish uniig zimmasida bo'ladi. Ta'lim muassasasi uslubchi axborot kunini tashkil etishda asosiy tashkilotchi hisoblanadi, axborot resurs markazi rahbari, kafedralar mudirlari va murabbiy o'qituvchilar ishtirokida o'tkaziladi. Uslubchi axborot kunining rejasi bilan yaqindan tanishib chiqadi va kerakli maslaxat yoki ko'rsatmalar beradi. Asosiy e'tibor axborot kuniga tayyorlangan manbaning yangiligi va ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashga qaratilganligidir. Axborot kunini o'tkazishda ko'rgazmalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir, ya'ni yangi chiqqan asarlar ko'rgazmasi yoki ilmiy yangiliklarning ahamiyati tomonlari video-lavhalarda, plakatlarda tasvirlanishi, ilg'or tajribalarni targ'ib otuvchi lavhalar, bukletlar va xokazo. Axborot kunlарini o'quvchilar orasida ham o'tkazish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan uslubiy ishlarni funksiyalari uning mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Biz tomondan tavsiya etilayotgan uslubiy ishlarning funksiyalarini amalga oshirish talim muassasalarida ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga va o'qituvchilarning yangicha tipini shakllanishiga zamin yaratadi.

12.3.Uslubiy ishlarni tashkil qilishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida o'quv - tarbiyaviy jarayonida foydalilanayotgan uslubiy ishlar an'anaviy shakllari bilan bir qatorda ularni yanada rivojlantirish, ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilishi zarur bo'lgan uslubiy ishlarning an'anaviy va noan'anaviy shakllari quyidagi I -rasmda keltirilgan.

Uslubiy ishlarning an'anaviy shakllari: ilmiy-pedagogik kengash, uslubiy kengash, fan uyushmalari, uslubiy komissiya yig'ilishlari, uslubiy ko'rsatmaviy yig'ilishlari, nazariy-amaliy seminarlar, konferensiyalar,

pedagogik o'qishlar, ko'rik-tanlovlari, murabbiylik maktabi, yosh o'qituvchilarga yordam, o'zaro darslarga kirishni tashkil etish, dars tahlillari. Litobxonlar konferensiyasi, uslubiy ko'rgazmalar va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik kengash - kasb-hunar kollejlarining oliv jamoaviy-kollegial boshqaruvi organi hisoblangan. Ilmiy-pedagogik kengash ish tartib qoidalari "Ilmiy-pedagogik kengash Nizomi" asosida olib boriladi. Ilmiy-pedagogik kengashda o'quv-tarbiya jarayoniga oid bo'lgan asosiy dolzarb muammoalar hal etiladi.

Uslubiy kengash - ish tartibiga ko'ra har oyda o'z yig'ilishlarini o'tkazib boradi. Uslubiy kengash pedagogik kengashga bo'ysunadi. Uslubiy kengash asosan ta'lif muassasasidagi olib borilayotgan uslubiy ishlarni muhokama etadi. O'qituvchilar tomonidan yaratilgan uslubiy tavsiyalar, jo'llanmalar, maruza matnlari, majmualar, dars ishlamalarini o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etishni ko'rib chiqadi va xulosalar beradi. Ilg'or ijribalarni umumlashtirish, o'qitishning samarali usullari, yosh o'qituvchilarga beriladigan uslubiy yordamlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Uslubny komissiyalar - har bir kafedra qoshnda tashkil etiladi. Uning asosiy vazifasi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda ta'lif berishning tarkibi, shakli va usullarini davlat ta'lif standartlari asosida tashkil etilganligini nazorat qiladi, nazariy va amaliy darslarni samarali o'tish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar tayyorlaydi, o'qituvchilarning ijodiy ishlarni bo'rib chiqadi. Kafedra ish tartibiga ko'ra o'z yig'ilishlarini o'tkazib boradi.

Nazariy-amaliy seminarlar - maqsadi o'qituchilarning pedagogik-psixologik va texnik bilimlarni egallashlariga yordam berishdan iborat. Seminar mavzulari pedagogik jamoaning individul talablari bilan kelishgan holda tasdiqlanib, amalga oshiriladi. Seminarlarning ahamiyati hundaki, u o'qituvchilarga ta'lif va tarbiyaning aktual muammolarii tezkor hal etishlariga imkon beradi va pedagogik ijodning eng muvaffaqiyatlari ovojlanish shakli hisoblanadi.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar - ilmiy ish natijalari, ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribasi, uslubiy adabiyotlardan foydalanish hamda ulami tafsilot-targ'ibot etish maqsadida tashkil etiladigan uslubiy ishlarning samarali shakllaridan biridir.

Konferensiyalar - o'z vazifalari va tarkibiga ko'ra quyidagicha muuhilarga bo'linadi: mavzuiy (ba'zi hollarda nazariy); texnikaga oid; ilmiy-madaniy. Ilmiy-uslubiy konferensiyani tashkil etish bo'yicha tadbirlar avval rojalashtirildi va tayyoragarlik ko'rildi.

Konferensiya ishtiroychilari masalalarni muhokama etish jarayonida ilmiy tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha muhokimlikda tavsiyalar ishlab chiqishadi.

Pedagogik o'qishlar- o'quv tarbiyaviy jarayonagi ilg'or tajribalarni pedagogik amaliyotda namoyon qilish, umumlashtirish va tatbiq qilish, uslubiy mahoratni mukammallashtirish, o'qituvchilar ijodiy tashabbusini rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Pedagogik o'qishlar tashkilotchilari direktor, o'quv - ishlab chiqarish ishlari bo'yicha direktor o'rinosari, uslubchi, uslubiy komissiyalar raislaridir.

Pedagogik o'qishda o'quvchilarni tarbiyalashning eng faol masalalari bo'yicha ma'ruzalari muhokamaga qo'yiladi. Ma'ruza mavzulari respublika pedagogik o'qish muammo va mavzulari bilan muvofigqlashtiriladi. Ana shunday ma'ruza mavzulardan, ya'ni ta'lim muassasasi pedagogik o'qishlari uchun tavsiya qilingan ma'ruzalar mavzuidan quyidagilarni keltirish mumkin: nazariy darslarda ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash shakl va usullari; fanlararo aloqalarni o'rnatish va amalga oshirishning usullari {aniq fan misolida}: darsda o'quvchilar mustaqilligining faollashtirish usullari; o'quvchilar mustaqil ishlarni tashkil etishda rahbarlik qilish va mustaqil ishlarni baholash; o'zlashtirishi va davomati past o'quvchilar bilan ishlash shakl va usullari; laboratoriya - amaliy mashg'ulotlar metodikasi va ularni tashkil qilish; o'quvchilar ijtimoiy tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirish usullari; amaliyot darslarida o'quvchilar qiziqishlari va intilishlarini inobtaga olish va h.k.

Ta'lim muassasasi rahbarlari navbatdagi pedagogik o'qishga tayyorgarlikki boshlar ekanlar o'z jamoalari ilg'or pedagogik tajribani o'quv - tarbiyaviy jarayonida foydadanish bo'yicha ishlarni har tomonlama tahlil qilib ko'rishlari, pedagogik kengashning maxsus kengashini o'tkazib, unda bo'ladigan pedagogik o'qishning maqsadi va vazifalarini tushuntirishlari, ma'ruza tayyorlash uchun mavzu tavsiya qilishlari lozim.

Talim muassasasida o'tkaziladigan pedagogik o'qish oldidan o'quv - uslubiy ko'rgazma tayyorlash tavsiya qilinadi. Ko'rgazmada didaktik materiallar, o'quv - ko'rgazmali qurollar, o'quvchilar ishidan namunalar, darslarning reja va ishlanmalari, istiqbolli — mavzuiy rejalar, uslubiy ko'llanmalar namoyish qilinadi.

Pedagogik o'qishda eng yaxshi deb tan olingan ma'ruzalar viloyat, respublika pedagogik o'qishlariga tavsiya qilinadi. Qolgan ma'ruzalarlarga ham xulosalar yozilib, qayta ishlashga tavsiya qilinadi. Respublika miqyosidagi ma'ruzalarda o'z ifodasini topgan ilg'or tajribalarni umumlashtirib, o'qituvchilar va kasb ta'lim o'qituvchilar amaliyotiga tatbiq qilish, uni keng o'rganish tavsiya qiladi. Yangi pedagogik usul va shakllari matbuotda e'lon, qilishga tavsiya qilinadi.

Pedagogik o'qishlar uslubiy ishlarning an'anaviy shakliga kiradi. Hozirgi kunda u o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, chunki pedagogik o'qishda o'qituvchilar o'tasida fikr almashish, o'rtoqlashish, o'z tajribasini namoyon etish imkoniyati yaratiladi. Pedagogik o'qish orqali ilg'or tajribalar

ommalashtiriladi. Pedagogik o'qishlarni o'qituvchilar uchun ilmiy - uslubiy konferensiya deb atasak xato bo'lmaydi.

Ko'rik tanlovlari - ta'lim- tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, "Yilning eng yaxshi o'qituvchansi", "Moxir usta", "Ilg'or guruh rahbari" kabi ko'rik tanlovlari o'tkazish mumkin. Ko'rik-tanlovlarni o'tkazish tartibi har bir ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

Murabbiylar maktabi - o'zining ish faoliyatining maqsadi- ta'lim va tarbiyada samaradorlikka erishishdan iborat bo'lib, rejalashtirishda turli usullarni qamrab oladi:

- ilg'or pedagogik tajriba-o'rni o'rganish, umumlashtirish, va ta'lim jarayoniga qo'llash.

- o'quv-uslubiy ishlarning yangi shakllarini targ'ib etish;

- -ijodkor va faol o'qituvchilarini rag'batlantirish. SHaxsiy uslubiy ishlarning asosini ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ulardan ijodiy foydalanish tashkil etadi.

Pedagogik mahorat bu har qanday faoliyatda mukammallikka erishishga intilish uchun harakat qilinadigan sifat ko'rsatkichidir. O'quvchilarning faoliyati kasbiy malakasi va pedagogik mahorati orqali modalanadi. Malakali mutaxassislarini tayyorlash sifati o'qituvchilarning kasbiy tayyoragarligi bilan chambarchas bog'liqidir. Shuning uchun kasb-unar kollejlar o'qituvchilarining kasbiy maxoratini malaka oshirish va o'z uchida ishlash orqali amalga oshirish mumkin. Ya'ni:

- malaka oshirish kurslarida o'qitish;

- dörimiy harakatdagi viloyat, shahar malaka oshirish kurslari va shaharlarda inalakaoshirish;

- ta'lim muassasasi zaminida tashkil qilinadigan seminar yoki murotg'ulotlarda ishtirot etish.

- ilg'or pedagogik tajribalar maktabi o'qituvchilarning uslubiy shakllarini oshirishga yordam beradi. Ilg'or tajribalar maktabidagi ta'lim quyiidiagi shakllarda tashkil qilinadi: ijodiy ish olib boruvchi o'qituvchilar, tarbiyinchilar va ishlab chikarish ta'limi ustalarining darslari (yoki darsdan tashqari tadbirlar)da ishtirot etish; innovatsion texnologiyani o'z darslariga olib etgan o'quvchilar darslarida ishtirot etish, ularning tajribalarini o'rganish.

Murabbiylar maktabida o'ziga xos mualliflik sinflari bo'lib, unda ilg'or pedagogik malakalar beriladi, balki o'qituvchilarini yangicha sharoitlar asosida ta'lim mazmuni, vazifalari bilan tanishtiradi va pedagogik jamoani innovatsion faoliyatga tayyorlaydi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib "Murabbiylar maktabi" holliyatini yangilash orqali o'qituvchilarning kasbiy malaka va pedagogik mahoratini takomillashtirish uslubiy ishlarning vazifasidir.

Murabbiylar maktabi faoliyatida tajribali o'qituvchilar yosh o'quvchilar va kasb ta'limi o'qituvchilar bilan birligida o'zaro da'slarga

kirish va darsdan tashqari tadbirlarni birgalikda tashkil qilishi muhim o‘rin tutadi. SHunga qaramay, bularning hammasi kutgan natijani bermasligi mumkin. Ilg‘or tajribaning faqat tashqi usul va shakllarigina olinib, uning individual xususiyatlari va ichki mantig‘i, asosiy mohiyati o‘zlashtirilmay, qolib ketayapti.

Bu muammoni hal etishda biz taysiya etayotgan uslubii ishlarning noan'anaviy shakllariny amalga oshirish maqbuldir, chunki bugungi talim tizimi mazmuni, maqsad va vazifalar yangilangan. Bu esa o‘qituvchidan yangi axborot va pedagogik texnologiyani amalga oshirish, o‘z ishiga yangicha ijodiy yondashish, faoliiginn oshirish va o‘z ustida tinmay ishslashga undamoqda.

Ilg‘or tajriba - bu birinchi navbatda o‘qituvchi, kasb ta’limi o‘qituvchilarda o‘quv - tarbiyaviy jarayonni bir butun holatda xamda darsning samaradorligini oshirishning usul va shakllarini tinimsiz ijodiy izlash oqibatida yangilikni his kilish. Ilg‘or pedagogik tajriba bilan bog‘liq ishlarda o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini tomonidan shaxsiy tajribadarini umumlashtirishni tashkil qilish katta o‘rin egallaydi. Ana shunday ishlarning natijasi sifatida o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini pig seminar, konferensiya, pedagogik o‘kishlarda o‘z ish tajribalari haqidagi ma‘ruzalari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi, kasb ta’limi o‘qituvchi, yangilik yarata olmasa ham erishilgan yutuqlardan mohirlik bilan foydalana olishni bilishlari zarur ya’ni, usulni o‘rganish mumkin, kundalik darsga tayyorgarlik ko‘rishda va dars o‘tishda o‘zining ijodkorligi namoyon bo‘lishi shart. Dars - har bir o‘qituvchining ijod mahsuliga aylanishi kerak.

Ochiq dars -uslubiy ishlarning keng tarqalgan shakli. O‘qituvchilar va kasb ta’lim o‘qituvchilarning ochiq darslarda ishtirot etishi va o‘zaro darslarga kirishi muhim ahamiyatiga ega.

Bizning fikrimizcha, ochiq darslar va o‘zaro darslarga kirish o‘qituvchilarga ixtisosligi yuqori pedagogik mahoratini ko‘rsatib berish bilan birga yosh o‘qituvchilarga darsni tahlillarini o‘rgatishdan iboratdir. Ishtirot etishdan maksad - tajriba almashish, dars o‘tishning yangi usul va shakllarini bilish va o‘z faoliyatida ko‘llash.

Ta’lim jarayonida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar tufayli ochiq darsni muhokama qilish jarayonida: o‘quvchilarning faoliigi; mustaqil fikr yuritishi; darsni o‘zlashtirgani; darsning nazariy va amaliy qismi bog‘langanligi; fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning o‘zviyligiga; muammoli vaziyatlarning vujudga keltirilganligi; o‘quvchilarning ijodiy izlanishiga yo‘naltirilganligi; ta’lim va tarbiyaning uzviyligiga e’tibor berish eng muhim hisoblanadi.

“Yosh o‘qituvchilar maktabi” - bu yosh o‘qituvchilar va kasb ta’limi o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantiruvchi ijod maktabi. Har bir ta’lim muassasasiga yiliga yangi yosh o‘qituvchilar ishga

qabul qilingan. Yosh o'qituvchilarni kundalik o'quv jarayoniga tayyorlash uchun ularga nazariy va amaliy yordam ko'rsatish zaruriyatini aniqlangan.

Uslubiy ishlarning eng asosiysi "Yosh o'qituvchilar maktabi" ni tashkil etish va uning faoliyatini takomillashtirish orqali o'qituvchilar va kasb ta'limi o'qituvchilarning kasbiy malakasini va pedagogik mahoratini shakllantirishdan iboratdir. «Yosh o'qituvchilar maktabi» o'z faoliyatini reja asosida olib borgan, asosiy e'tiborni o'qituvchilarning o'z kasbiga mexr muhabbatni shakllantirish, o'quvchilarni sevishga, o'z ishiga ijodiy yondashish omillarini singdirishga karatgan.

«Yosh o'qituvchilar maktabi» ish jarayonida quyidagi uslubiy ishlar muhim rol o'ynaydi:

- ta'lim mazmunini chukurlashtirish bo'yicha tashkiliy uslubiy tadbirlarni yosh o'qituvchilar hamkorligida ishlab chiqish;
- o'quv dasturlarini tahlil qilish va kerakli xollarda qo'shimchalar, o'zgartirishlar kiritishda ularning ham ishtirokini ta'minlash;
- o'quvchilar bilimini nazorat qilish usullarini birqalikda ishlab chiqish;
- ko'rik - tanlov, umumta'lim fanlari bo'yicha olimpiadalar, soniilarlar, uslubiy ko'llanmalar ko'rgazmalarni o'tkazishni tashkil qilishda ularning ishtirokida o'tkazish;
- ochiq darslarga birlagliqda kirish, tahlil qilishda ularning fikrlarini inobatga olish;
- ilg'or tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish bo'yicha tashkil otildigan seminarlarda ularning faol qatnashish va o'z tajribalari bilan fikr ilmushishini tashkil etish.

O'qituvchilar va kasb ta'limi o'qituvchilarga uslubiy - amaliy yordam bo'lmishda quyidagi tashkiliy jihatlarga e'tibor berish muhim aharniyatga bo'lgan darsni tashkil etish metodikasi; darsga doir (o'quv uslubiy) me'yoriy hujjathar (dars ishlanmasi, ma'ruza matni uslubiy majmualar, bo'llanmalarini) tayyorlash; dars uchun didaktik materiallarni tayyorlash; darsda ta'lim bilim tarbiyani o'zviyilagini ta'minlash; o'zaro darslariga kirish va tahlil etish; darsda vaqtidan to'g'ri foydalanish; darsga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish; qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish; ilg'or tajribalarni o'rganish; darsda texnika vositalaridan foydalanish; darsga fanning so'ngi yutuqlarini joriy etish.

O'zaro darslarga kirishni tashkillash - bu o'qituvchilar va ishlab chiqish ta'limi ustalarini tajribalarini orttirishga qaratilgan bo'lib, bo'lgan jadval asosida yuritiladi. Uning ahamiyatli tomoni o'qituvchilar o'aro darslarga kirish orqali dars o'tishning yangi usul va shakllarini o'qandishdir.

Dars taxlillari - turlicha bo'lib quyidagilardan iborat bo'lgan. Ahamiy pedagogik tahlil, ilmiy tahlil, pedagogik tahlil, didaktik tahlil va metodik tahlil. Darsga tahlilga kirayotgan o'qituvchi yoki rahbar xodimlar

o‘z oldiga ma’lum tahlil turlarini maqsad qilib belgilaydi va natijani shunga muvofiq tahlil qiladilar.

Kitobxonlar konferensiysi -ta’lim muassasasi o‘qituvchilari, kasb ta’lim o‘qituvchi xodimlar ishtarokida o‘quv-uslubiy tashkilot uslubchilari rahbarligida o‘tkaziladi. Konferensiya muhokama etiladigan materiallarni tayyorlagan mualliflar, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari xodimlari, korxonalarining vakillari taklif etiladi.

Kitobxonlar konferensiyasini o‘tkazish uchun mavzu bo‘yicha yoki yoritiladigan pedagogik masalalarning dolzarbligiga qarab, umumlashtirilgan uslubiy tavsiyalar tanlanadi. Kitobxonlar konferensiyasini tashkil etuvchilar: ta’lim muassasasi rahbarlari, o‘quv uslubiy tashkilotlari uslubchilari, uslubiy komissiyalar vakillari, axborot resurs markazi rahbarlari.

Kitobxonlar konferensiyasida ilmiy-uslubiy adabiyotlar ularning dolzarbliji, amaliy masalalarni echishdagi ahamiyati, yangiligi, ularni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llashdan kutilayotgan natijalar nuktai nazaridan tahlil etiladi va baholanadi. Muhokama natijalar har bir nashr bo‘yicha ko‘rsatmalar, izohlar, takliflar tarzida rasmiylashtirilib, umumlashtirilgandan keyin ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga jo‘natiladi.

Uslubiy ko‘rgazmalar-uslubiy ishlarning yana bir keng tarqalgan shakllaridan biri. Ko‘rgazmaning tashkiliy tashabbuskorlari bo‘lib, uni o‘tkazish maqsadlariga ko‘ra, o‘qituvchilarning ijodiy guruh va uslubchi hisoblanadi. Pedagogik o‘qish, seminarlar va konferensiyalarni samarali o‘tkazishda har bir kafedra mudiri, uslubchi, ijodiy guruh va o‘quv ishlarii bo‘yicha direktor o‘rinbosari ma’suldir, shuningdek uning tarkibi ma’lum sharoitlarda uslubiy ishlarning guruhli, individual va jamoaviy shakllariga tegishli bo‘lishi mumkin.

Uslubiy ishlarling an‘anaviy shakllaridan hozirgi kunda ham ta’lim tizimida foydalanimoqda.

Uslubiy ishlarning noananaviy shakllari: ilmiy-uslubiy muvofiqlashtiruvchi markaz, ijodiy - eksperimental labarotoriyalar, muammoli guruhlar. uslubiy ring, pedagogik turnirlar, pedagogik trening, uslubiy ko‘rgazmalar, uslubiy ishlar monitoringi, uslubiy suhbatlar va boshqalar.

Ilmiy-uslubiy muvofiqlashtiruvchi markaz kasb-hunar kollejlarida uslubiy ishlari tizimida ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yishga, ekspertizadan o‘tkazishga, tadqikot-eksperiment ishi natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishga imkon beruvchi tuzilmadir. Ilmiy-uslubiy muvofiqlashtiruvchi markaz ilmiy-pedagogik kengashga bo‘ysunadi. Uning tarkibiga o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, kasbiy ta’lim bo‘yicha direktor o‘rinbosari, uslubchi, kafedra mudirlari,

uslubiy komissiya raislari, yuqori malakali o'qituvchilar va kasb ta'limga o'qituvchilarini kiradi.

Ilmiy-uslubiy muvofiqlashtiruvchi markaz ayni bir vaqtida ekspert kengash vazifasini ham o'taydi va unda mualliflik o'quv dasturlari, o'quv ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyani tatbiq etish bo'yicha eksperiment ish natijalari tahlil etiladi.

Ilmiy-uslubiy muvofiqlashtiruvchi markazning boshqaruv vazifalariga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini ishlab chiqish;

- o'qituvchilarning ilmiy-tadkiqot ishlarini tashkil etish va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- pedagogik jamoa a'zolarini individual uslubiy ehtiyojlarini c'tiborga olgan holda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

- o'qituvchilarning umumiy uslubiy qiziqishlari bo'yicha ulariing norasmiy birlashmasini tuzish;

- o'qituvchilarning ilmiy-tadkiqot ishlari holatini nazorat qilish, tadkiqot natijalarini tahlil etish va baholash uchun ekspertrilar guruhibi tashkil etish.

Ilmiy-uslubiy muvofiqlashtiruvchi markazga uslubiy ishlarining ijodiy eksperiment laboratoriylari, o'qituvchilarning ijodiy guruhi va pedagogik injribalar markazi kabi tuzilmalari ham bo'y sunadi.

Ijodiy - eksperimental labarotoriyalar: Ijodiy-eksperimental laboratoriylar kafedralar qoshida va kollej miqyosida tashkil etildi. Uning nusosiy vazifasi muammoni ijodiy hal etish, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayonga umaralni natija beruvchi nazariy va amaliy dars o'tishning noan'anaviy shakllarini amalda tatbiq etish ustida ish olib bordi. Ijodiy-eksperimental laboratoriyada har bir o'qituvchi o'z ijodiy ishlarini amalda ko'rsatib berish imkoniga ega bo'ldi va pedagogik jamoaning ijodiy faolligi oshdi.

Ijodiy laboratoriylar zamon talablari asosida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda uslubiy ishlarining asosiy qismi hisoblanadi. O'qituvchilarning bu ijodiy birlashmalari yangi pedagogik nazariyalari va metodikasini o'zlashtiradilar, muammoli savollarni muhokama qiladilar, fikr almashadilar, olingan bilimlarni amalgaoshiradilar.

Ijodiy-eksperimental laboratoriylar quyidagilarni: o'quv-tarbiyaviy jarayoniga uzluksiz ravishda davlat ta'limga standartlarini joriy etishni ta'minlash, rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash; o'quv-tarbiya va ishlab chiqarish jarayoilarining me'yoriy va ilmiy uslubiy ta'minotini ishlab chiqish; tadkiqot-eksperiment ishlari dasturini ishlab chiqadi; tadkiqot-eksperiment faoliyat ish holatini nazorat qiladi; zarur hollarda ta'limga muassasasidagi tadkiqot-eksperiment faoliyatini muvofiqlashtiradi; tadkiqot-eksperiment ishi natijasini ekspertizadan o'tkazadi; ma'lum muammo bo'yicha tadkiqot-eksperiment ishini tashkil etish va

o'tkazish masalalari bo'yicha o'qituvchilarga maslaxatlar beradi; tadqiqot-eksperiment ishi natijalarini tavsiplaydi va rasmiylashtiradi.

Ijodiy-eksperimental laboratoriylar: ta'lif muassasasi doirasidagi ixtirochilik maydonchalari - ilmiy va texnikaviy vazifalarni bajaruvchi uchta yo'nalishda bo'ladi: o'quv dasturi va rejasidagi hujjatlarni takomilashtirish; o'quvchilarni o'qitishni nazorat qilishning an'anaviy va noan'anaviy usullarini ishlab chiqish; nazariy va ishlab chiqarish ta'lilda dars o'tish metodkasini ishlab chiqish.

Ijodiy-eksperimental laboratoriylar guruhi 5 yoki 7 nafar o'qituvchidan iborat bo'ladi. Tashkiliy bosqichda ijodiy guruhning ish jarayoni maqsad va vazifalar, izlanish va ixtiolar mazmun - mohiyati belgilab olinadi, vazifalar taqsimlanadi. Ish jarayonida ijodiy guruh muammolar bo'yicha erishilgan yutuqlar bosqichma-bosqich ko'paytarilib boriladi, ular tahlil qilinadi va o'z ish'ari mazmuni axborotlari haqida kasbdoshlari bilan o'rtoqlashadilar, fikr almashinadi.

Uslubny ishlarning noan'anaviy shakllarini amalga oshirish natijasida o'qituvchilarning ijodiy faolligini, ularning pedagogik yangiliklarni amalda tatbiq etish va ilmiy-tajriba ishlarini shakllantirishga ijobji yondashishlarini rivojlantirish; kasbiy ta'larning alohida bo'lgan sharoitlarida mualliflik dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish: o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish texnologiyalarini egallashlari: bitiruvchilarni mehiat bozorida raqobatbardoshlikka tayyorlashni ta'minlovchi kasb-hunar kollejlaridagi ishlarda ta'lif va tarbiyaning innovatsion usullarini amalda ko'llash; o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshiruvchi yangi turdag'i o'qituvchini shakllantirish mumkin.

Uslubiy ishlarning noan'anaviy shakllaridan foydalanish o'quvdasturiy hujjatlarni ishlab chiqish; ta'larning intensiv texnologiyalarini tatbiq qilish; innovatsion texnologiyalarini dadillik bilan o'rganadigan, tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqadigan, o'quv-tarbiyaviy jarayonda intensiv usul va malakalarini namoyish qila oladigan ijodii guruhlar faoliyatini ko'rsatib berdi.

12.4.Uslubiy ishlarning individual shakllari mazmuni

Uslubiy ishlarning individual shakliga rahbarlarning pedagoglar bilan yakka tartibda ishlashi, mustaqil uslubiy ishlarni (bilim olish), murabbiylik va tajriba orttirish; darslarni davlat ta'lif standartlari talablari asosida tashkil etish; maxsus va pedagogik adabiyotlarni mustaqil o'rganish; axborot va talim texnologiyalari bo'yicha uslubiy ishlarni mazmuni; kasbga va kasbiy bilimlarni oshirishga qiziqishini uyg'otish, shaxsni o'z ustida ishslash va takomillash bo'yicha darsdan tashqari tadbirlar o'tkazish: ta'lif muassasasida o'quv - ishlab chiqarishning yangi

turlarini yaratish, texnologik ishlamalar va talabalarning ilmiy-texpik ijodini rivojlantirish.

Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi sifati, uning modsiy va ma'naviy boyligi, kasb-hunar kolleji rahbari, o'qituvchilar va kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga ijodiy yondashuvi, kasbiy malakasi va pedagogik mahorati darajasiga bog'likdir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalarini pedagog xodimlarining kasbiy-pedagogik imkoniyati o'z ichiga pedagogik dunyoqarashi, o'z ishi maqsadini aniqligi va natijalari hakidagi tasavvuri, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda muammolar echimlarini izlashi, o'z fanini chucher bilishi va yangi bilimlarga bo'lgan intilishidan iborat.

Ta'lim muassasasining rahbarlari, o'qituvchilar kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy malakasi va pedagogik mahorati mustaqil uslubiy ishlari va mustaqil ta'lim olib borishi natijasida oshib boradi. Mustaqil ta'lim olishdan maqsad, eng avvalo, malaka oshirish va o'z bilimlarini uzliksiz ravishda oshirib borish, darslarga (joriy istiqbolli) tayyorlanish jarayonidagi o'z ustida ishlashdir.

Mustaqil uslubiy ishlar yo'nalishlari

1. O'z pedagogik bilimlarini oshirish;
- 2 Darslarga (istiqbolli va joriy) tayyorlanish jarayonida mustaqil uslubiy ishlar;
- 3.O'z ustida ishlash.

1. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va foydalanish. Mustakil uslubiy ishlar yo'nalishlari bo'yicha ularning mazmunini quyidagilardan iborat.

1.O'z pedagogik bilimini oshirishning quyilagan umumiy yo'nalishlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

pedagogika, psixologiya, metodika sohasidagi va o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonini tashkil etish bo'yicha yangi bilimlar va

ilg'or tajribalar bilan tanishish orqali pedagogik malakaşini oshirish; yangi ilmiy-tehnik bilimlarni va fan, texnika, texnologiya, iqtisod va mohnatni tashkil etish, boshqarish va ishlab chiqarishning tegishli sohalari idagi yutuqlarni egallash yo'li bilan ixtisoslik va fan bo'yicha nazariy va kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish;

shaxsiy qiziqish va ehtiyojiga ko'ra umum madaniy dunyoqarashi va bilimini kengaytirish;

Pedagogik nazariya va amaliyotda o'z bilimini oshirishning quyidagi shakllari mavjud: individual - o'qituvchining kasbiy, pedagogik va uslubiy mahoratini va umummadaniy darajasini oshirish jarayonidagi mustaqil ishi; ilmiy-o'qituvchilarining nazariy va uslubiy seminarlarda, pedagogik bilimlar, madaniyat, adabiyot, san'at universitetlarida, uslubiy kengash va

komissiyalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, pedagogik o'qishlar, ilg'or psdagogik tajriba maktablarida ishtirok etishi va boshqalar.

O'qituvchi va kasb talimi o'qituvchilari o'z bilimlarini oshirishning asosiy metodlari.

- ilmiy pedagogik adabiyotlar va kasbiy bilimni chuqurlashtirishga oid uslubiy tavsiyalarni mustaqil o'rganish.

- talim muassasasida tashkil etiladigan barcha uslibiy ishlar uning turli shakllarida ishtirok etish.

- kasb hunar talimi tizimida to'plangan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish.

- o'zaro darslarga kirish ochiq darslarni muhokama etishda ishtirok etish.

- o'z ishini va uning natijalarini muhokama etish ilmiy tashkilotlar bilan birgalikda talim muassasasi o'tkaziladigan tajriba sinov ishlarida ishtirok etish.

- fanlar va kasblarning majmuaviy uslubiy taminoti bo'yicha materiallar to'plash, referatlar uslubiy materiallar leksiya maruzalar tayyorlash.

Kasb talim o'qituvchilarning o'z bilimini oshirish borasidagi ishlari eng avvola o'qitish va tarbiyalash sifatini yaxshilashga o'quv tarbiya va ishlab chiqarish jarayonining o'zaro bog'liqligi taminlovchi amaliy masalalarni echishga ularning mahoratini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

1. O'z bilimini oshirishda ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilarning mustaqil ishini rejalashtirish (shaxsiy ish reja) muhim ahamiyatga ega. Reja har bir o'qituvchi yoki kasb ta'lim o'qituvchining shaxsiy qiziqish va extiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi. Unda o'z bilimini oshirish jarayonida nimani qanday maqsadda va qachon o'rganishi bajarishi ishlab chiqishi aniq ko'rsatiladi. O'z bilimini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etishda ta'lim muassasasi pedagogik (uslubiy) xizmat xonasi katta ahamiyatga ega bo'lishi kerak. O'z bilimini oshirish natijasi mustaqil ishlanmalar hisoblanadi. (uslubiy tavsiyalar, uslubiy majmualar, o'quv materiallar, qo'llanmalar, ma'ruzalar.)

2. Darslarga tayyorlanish jarayonida o'z ustida ishlash. O'qituvchilar va kasb ta'limi o'qituvchilarining darslarga tayyorlanish jarayonida darsliklar ilmiy texnik va metodik adabiyotlarda yangi pedagogik axborotlarni o'rganishdan boshlashi lozim. Shundan keyin ular istiqbollli mavzuli rejalar va dars rejalarini ishlab chiqadilar. Ularni o'tkazishning shakl, usul va vositalarini o'ylab topadilar. O'quvchilar uchun vazifa va topshiriqlar ishlab chiqadilar. O'tgan mashg'ulotlar natijalarini tahlil qiladilar o'quvchilarning bilim va o'quvchilarni nazorat qilish usullarini belgilaydi.

Ana shu barcha tayyorgarlik ishlardida o'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy malakasi va pedagogik mahoratining uslubiy qirralari kamol topadi. Bular bevosita dars jarayonida o'z ifodasini topadi.

Yangi bilimlarni mustaqil o'rganish va uni amalga oshirish rejasи bu o'qituvchining shaxsiy ish rejasidir.

3. Uslubiy ishlarning alohida turi o'z ustida ishslash. Kasbiy va pedagogik mahoratni oshirish – har bir o'qituvchining o'quvchiga beradigan ta'limi, o'quv – tarbiyasi uning kasbiy va pedagogik mahoratini oshirishgabog'liq. Hozirgi komyuter va axborot texnologiyalari takomillashtagan davrda o'qituvchidan o'z ustida tinimsiz ishslash va izlanishni taqazo etadi.

O'z ustida mustaqil ishslashning eng yuqori shakliga o'qituvchilarning ilmiy ishi kiradi.

Mustaqil o'z ustida ishslash asosan quyidagi to'rt bo'limdan iborat.

1. G'oyaviy- siyosiy ma'rifiy darajasini oshirish
2. Ilmiy- texnikaviy bilimlarini takomillashtirish
3. Pedagogik bilim va uslubiy tayyorgarlikni oshirish
4. Ma'naviyat va nafosat ko'rsatkichlarini shakllantirish

Mustaqil ishslash orqali o'z malakasini oshirishning yana boshqa turlariga, seminarlarda, pedagogik o'qishlarda, konferensiyalarda o'z ilmiy natijalari, amaliy ish tajribalarini amalgalashishga tayyorgarlik ko'rish hisoblanadi.

4. Murabbiylit tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, foydalaniш va yosh o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish.

Individual uslubiy ishlarning asosini ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ulardan ijodiy foydalishni tashkil etadi.

Demak, ilg'or pedagogik tajriba – bu dars samaradorligining oshirish usul va shakllarinitinimsiz takomillashtirilishidir. O'qituvchining ta'linda izchillik faoliyati – bu uning tajribasi. Bu tajribada o'qituvchining pedagogik qirralari aks etadi. Ilg'or tajribalar dastlab uni o'rganishdan boshlanadi, ya'ni o'qituvchi darslarni kuzatadi, fikrlar mohiyatini tushunadi, yutuqlari zaminini biladi va ularii umumlashtiradi hamda o'z faoliyatiga kiçslaydi. Ilg'or tajribadan foydalaniш aynan mohir o'qituvchi dars boskichlarini takrorlash mas, balki u ko'llagan usul va shakllarning yachkiya mantig'ini anglash, asosiy mohiyatini o'zlashtirish, xususiyatlarni bilish uziga moslashtirishp orqali ifodalanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini rahbarlarining shaxsiy uslubiy ishlari o'z ichiga kuyidagilarni qamrab oladi:

- o'qituvchilar, kasb ta'limi o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, guruh rahbarlari, tarbiyachilar va ta'lim muassasalarining boshqa toifadagi qodimlari ishini o'rganish va tahlil qilish ularga pedagogik mahoratni ugallashida, o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda tadbirlarni o'tkazish metodikasipi takomillashtirishda yordam qo'rsatish;

- ilg'or pedagogik tajribani aniklash vao'rganish, o'qituvchilar va kasb ta'lism o'qituvchilarga yordam ko'rsatish o'quv reja hujjalari, shaxsiy ijodiy rejalarini tuzish, fan va kasblarniig aniq uslubiy ta'mnoti bo'yicha materiallar ishlab chiqishda, ma'ruzalar tayyorlash hamda konferensiyalar, pedagogik o'qishlar va boshqa chiqishlarda yordam berish;

-o'qituvchilar va kasb ta'limi o'qituvchilariga ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishlarida yordam ko'rsatish. Ochiq darslarni, boshqa mashg'ulot va tadbirlarni shaxsan o'zi o'tkazib bsrishi;

- ta'lism muassasalari ishi amaliyatiga ilmiy natijalarni, ilg'or va ishlab chiqarish tajribalarini ko'llash, ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va ulardagi o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirishga oid natijalarni ko'llash.

Ta'lism muassasalari rahbarlari shuni juda yaxshi bilishlari lozimki, o'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilari bilan shaxsiy ishlashda, eng asosiyisi, ular faoliyatidagi salbiy yoki ijobjiy jihatlarni aniqlashtirishdangina iborat emas, balki ularning sabablarini chuqur tahlil qilish, bu tahlili natijalari asosida pedagogning ta'lism va tarbiya jarayoiini takomillashtirish uchun unga yordam ko'rsatish bo'yicha aniq tadbir va tavsiyalar ishlab chiqish.

Kollej rahbarlarining o'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilari bilan individual uslubiy ishlarning asosii shakllaridan biri kasb-xunar kolleji ichidagi pedagogik nazoratdir. Pedagogik nazoratning vazifasi o'quv va tarbiyaviy ishlar holatini doimiy ravishda o'rganish, o'quvchilarning g'oyaviy - siyosiy tarbiyasi bo'yicha o'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilarining faoliyatini tekshirish, o'quv rejalarini va dasturlarini bajarish bo'yicha, ta'lism va tarbiyaning zamonaviy ilmiy asoslangan usullarini qo'llash, o'quvchilar bilimi, ko'nikma malakalarini aiqlash shuningdek o'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilarning individual sifatlarini hisobga olgan holda tegishli yordam ko'rsatishdir.

Nazoratning bir bugunligicha yuksak samaradorligining muhim sharti, shuningdek darslarning nazorati va tahlili qisman ularning majmuaviy xarakterida namoyon bo'ladi. Majmuaviy darsni tashkil qilish va uni o'tkazish metodikasi, o'quvchilarning darsdan olgan bilimi sifatini, ko'nikma va makasini baholashi kerak. Nazoratning bu ikki aspekti - uslubiylik, natijaviylik - har doim birlikda bo'lish kerak. O'quvchilar bilimi, ko'nikma malakasi pedagog faoliyati darajasining ko'rsatkichi bo'lib, dars berish sifatini belgilash va tekshirishning eng yaxshi usulidir.

Nazorat etiladigan har qanday masalani o'rganishning quyidagi bosqichlarni «qamrab olishi kerak: o'rganishning maqsadini aniqlash; nazorat qilish rejasini tuzish; metod va shakllarini tanlash; ishning xaqiqiy holatini tavsiflash; ishning xaqiqiy holatini baholash; aniq pedagogik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; kasb ta'limo'qituvchilarga amaliy yordam ko'rsatish.

Ta'lim muassasasi rahbari ichki nazoratniqg asosiy metod va shakllari sifatida kuyidagilardan foydalanishi mumkin:

- nazariy va amaliy mashg'ulotlarni va ishlab chiqarish amaliyotini, darsdan tashqari tadbirlarni kuzatish va tahlil qilish;
- o'quv rejalarini va dasturlarining bajarilishini tahlil qilish;
- ishlab chiqarish ta'limi ustalari, kasb ta'lim o'qituvchilar, o'qituvchilar, guruh rahbarlarini va tarbiyachilar ishini kuzatish;
- o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish masalalari bo'yicha o'qituvchi va kasb ta'lim o'qituvchilar bilan suhbattlashish;
- og'zaki so'rov, o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishi, ularniig kasbiy bilimi sifatini tekshirib ko'rish;
- ta'lim muassasasi o'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilarining rejalarini, hisobotlari, ta'lim natijalarini tahlil etish.

Kasb-hunar kollejlariagi ichki nazorat maslahat berish xarakterida amalga oshirilmasligi kerak. Dars tahlili, o'qituvchi, kasb ta'limi o'qituvchisi va ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatini tekshirish va o'rganish malakaviy yordam ko'rsatish xarakterida bo'lishi lozim. Buning uchun ta'lim muassasasi rahbari va uning o'rinnbosarlari pedagoglar faoliyatining barcha qirralarini juda yaxshi bilishi lozim.

Ta'lim muassasasi rahbarlari shaxsiy, jamoaviy uslubiy ishlar bilan bnr qatorda pedagogik kadrlar bilan ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda doimiy ravishda yakka tartibdagi ishlar olib borishlari lozim. O'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalar bilan individual ishlar samarali natija berishi uchun rahbarlar o'qituvchilarini har tomonlama, ularning kuchli va ojizligini pedagogik yutuqlari va imkoniyatlarini, ish tizimlarini yaxshi bilishlari kerak.

O'qituvchi va kasb ta'limi o'qituvchilarini ish tizimini o'rganish uchun quyidagi masalalarni yorituvchi rejadani foydalanshp mumkin:

- ishga munosabat - topshirilgan vazifani tirishqoqlik va vijdongan jon dili bilai bajarishi, pedagogik faoliyatiga mehr ko'yanligi, o'quvchilar bilan ishlashga qiziqishni, pedagogik ijodga qobiliyatililigi, ilg'or tajribalarni o'rganishga moyilligi, o'z ustida tinimsiz ishlashi.
- o'quvchilarga munosabati - pedagogik; odob qoidalariga rioya qilishi, mafolatliligi, talabchanliligi, o'quvchilarga har doim samimiy munosabatda bo'lishi, o'quvchi shaxsiga hurmat bilan qarashi, intizomni o'shlab turishi dars va darsdan tashqarida ham o'quvchilarga e'tiborli bo'lishi.
- darslarga tayyorlarligi - o'quv rejasi va dasturga amal qilishi, ma'ruza matni va dars ishlanmasini tuzish, didaktik materiallar to'plashi, darsni te'liq ta'minlash bo'yicha barcha ishlarini amalga oshirishi.
- mashg'ulotlarni o'tkazish - darsda o'quvchilar diqqatini jamlab olish,
- o'quvchilar bilan savol-javob, suhbat usullariga ega bo'lish, ta'riflarning

to‘g‘riliqi va uni asoslash uchun keltirilgan dalillarning ishonchliligi, o‘quv materiali bayonining barchaga tushunarligi, mavzu bo‘yicha berilgan bilimning chuqurligi, shaxsiy pedagogik mahorati, savodxonliga, o‘qitishning turli usullaridan foydalanishi (hikoya, suhbat, namoyish qilish, kitob bilan ishslash, xujjatlashtirish, yozma yo‘l - yo‘rig‘ ko‘rsata olish va boshq), ko‘rgazmali qurollar hamda ta‘limning texnik vositalaridan foydalanishi, o‘quvchilarning darsda mustaqil ishlashi ustidan rahbarlik qilishi, o‘quvchilarning uy ishlariga rahbarlik qilish, o‘quv jarayonini tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda foydalana olishi, rahbarlar o‘qituvchilar faoliyati haqidagi ma’lumotlarni ish jarayonida, darslarga kirish va uni tahlil qilish, yakka tartibdagi uslubiy ishlar davomida o‘rganadilar.

Ishlab chiqarish ta‘limi ustasi va o‘qituvchilar ishiga rabbarning asosiy usullaridan biri - yakka tartibdagi konsultatsiyalar (maslaxatlar) berishdir. Konsultatsiyalar mazmuni rahbar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarini nazorat qilish maqsadida ishtiroti yoki ishlab chiqarish ta‘limi ustasi va o‘qituvchilar ish jarayonida paydo bo‘ladigan savollari bilan belgilanadi.

Konsultatsiya davomida istiqbolli - mavzuiy rejalar hamda dars rejalar, ishlab chiqarish ta‘limi bo‘yicha tekshiruv yoki yozma nazorat ishlarining mazmuni muhokama qilinadi Bunday konsultatsiyalar yosh o‘qituvchilar uchun juda ham muhimdir.

Rahbarning o‘qituvchilar bilan individual uslubiy ishlar shaklini muvaffaqiyatli tashkil qilishning ko‘yidagi shartlarini ifodalash mumkin:

- murabbiylilikning fani va kasbining yakinligi;
- pedagogik jamoada ommaviyligi;
- ikki tomonlama ko‘ngillilik va xamorlikka moyillik;
- ma’lum vaqt chegarasida doimiylik;
- rejalilik va ma’lum muddatni ko‘zda tutish;
- rahbarlik boshqaruvi va nazorati.

Pedagogik murabbiylilik qator yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanadi:

- o‘quv rejalar, dasturlar va boshqa o‘quv hujatlarni xamkorlikda o‘rganish;
- istiqbolli mavzui rejalarни xamkorlikda tuzish;
- darslarga tayyorlanishda yordam;
- o‘quv -tarbiyaviy jarayoni kompleks uslubiy ta’minlashda yordam;
- darsdan tashkari tadbirlar o‘tkazishda uni rejalashtirish va tayyorlashda yordam;
- o‘zaro darslarga kirish va ularni tahlil qilish hamda darsdan tashqari tadbirlar;
- mehatning ilg‘or usullarini egallash hamda pedagogik o‘z - o‘zini ma’lumoti qilish yordam

12.5. Ilmiy pedagogik kengash faoliyatini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar

Ilmiy-pedagogik kengashning yillik ish rejasи nusxasi o'qituvchilar yoki har bir kafedra xonasida ko'zga tashlanadigan joyda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-pedagogik kengashni o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Kengash kun tartibiga qo'yilgan masalalar dolzarbligi va muammoning nazariy echimi asoslanishi bilan ahamiyatlidir SHuning uchun kengash masalalari yuzasidan so'zga chiquvchilar ma'ruzasi nazariy va amaliy tahlillar asosida ko'rsatilishi zarur.

Ilmiy-pedagogik kengashga tayyorlangan ma'ruza va hisobotlarda o'qituvchilar va boshqa xodimlar faoliyatning tahlili, ulardagи yangilikka intilish, boshqalarga namuna bo'ladigan xususiyatlarini ochib berish shu bilan birga ularning kamchiliklari va ular echa olmayotgan muammolarning mayjudligi ko'rsatilishi kerak.

Ko'rsatilgan kamchiliklar va muammolar echimi ilmiy-pedagogik kengash tomonidan muhokama etiladi va kerakli chora-tadbirlar belgilanadi. Muhokamada berilgan savollar kun tartibida xal etilayotgan masalaning echimini topishga, xal -etishga yordam berishi kerak. Muhokama uchun erkin ijodiy sharoit yaratib berish kerak, chunki pedagogik jamoa a'zolari fikrini bilish maqsadga muvofikdir.

Ilmiy-pedagogik kengashning muvaffaqiyati dolzarb muammoni o'z vaqtida nazariy asoslab, kerakli chora -tadbirlarni belgilaganligidir. Ilmiy-pedagogik kengashda ko'rilgan har bir masalaga qaror leyihasi oldindan tayyorlab qo'yilishi zarur. O'quv - uslubiy masalalar bo'yicha bunday loyiada muhokama mavzusining nazariy asoslari qisqacha bayon qilinib, sabablari ko'rsatiladi.

Qarorda o'qituvchilar va rahbarlar oldida turgan vazifalar aniq va tayin ifodalananadi. Bu vazifalarni amalga oshirishning anik usullari sanab o'tiladi. Vazifalar qaerda amalga oshirilishi mumkinligi, unga kim javobgar bo'lishi, bajarilish muddatlari ko'rsatiladi.

Ilmiy-pedagogik kengash yig'ilishini bevosita o'tkazish

Psdagogik jamoa a'zolari ilmiy-pedagogik kengashda muhokama etilayotgan masalaga turlicha yondashadilar, ya'ni, ba'zilari tanqidga xotirjamlik bilan, boshqalar bezovtalik, xis - xayajon bilan qaraydi, ba'zilar masalaning mohiyatini qisqa va aniq bayon qilsa boshqalar extirosga berilib, ko'p gapirsa xam maqsadini ifodalay olmaydi faqat ko'p yillik tajribagina pedagogik kengashni muvaffaqiyatli o'tkazishga rahbarlik qila oladi.

Ilmiy-pedagogik kengashni olib borishning quyidagi qoida -tavsiyasini pedagogik kengash raisi va uning a'zolari yaxshi bilishi va unga qat'iy amal qilish shart:

- ko'rilayotgan masala dolzarbligi bilan hammani diqqatini tortishi, muammolar muxokamasi ishchanlik, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan uslubda, qisqa va aniq so'zga chiqishlar, ilmiy-pedagogik

kengash o'tkazish vaqtি aniq reglamentlangani;

- kurilayotgan masalalar muhokamasida faol ishtirok etishga kengash a'zolarining kengroq doirasini jalg qilish;
- ilmiy-pedagogik kengash jarayonini ko'rilgan masala yuzasidan kerakli qarorlarni chiqarish;
- ilmiy-pedagogik kengashni demokratik asosda olib borish, kengash a'zolari fikrlariga diqqat va hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- muhokama qilinayotgan masalalar mazmuni asosiy yo'nalishi hamda belgilangan rejaga aniq rioya qilish;
- ilmiy-pedagogik kengashda ko'rilgan masalalar muhokamasi yuzasidan qabul qilingan qarorlarni o'qib eshitirishi.

Ta'lim muassasasi rahbari ilmiy-pedagogik kengash yig'ilishini ochadi va kengash tartib va qoidalarini qisqacha eslatib o'tadi. Eng muhimim rahbarning muhokama jarayonini olib borish mahorati, o'qituvchilar fikr muloxazalarining anqligi va kerakli chora-tadbirlarning belgilanligi.

Ilmny-pedagogik kengash qarorlarini amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish

Ilmiy-pedagogik kengash qarori o'kuv muassasasi rahbari- kengash raisi tasdiqlagandan so'ng kuchga kiradi. Eng muhim qarorlar bo'yicha buyruqlar chiqariladi. Kengash qarori hamma uchun majburiydir. Ilmiy-pedagogik kengash qarorlarini amalga oshirish bo'yicha quyidagi shartlarni bajarish lozim bo'ladi:

- ilmiy-pedagogik kengash qarorlari uning a'zolarining barchasiga, birinchi navbatda uni ijrochi uchun javobgar shaxslarga etkazilishi kerak;
- ilmiy-pedagogik kengash qarorlari o'quv muassasasi ishining joriy va istiqboldagi rejalariga kirigilishi lozim; bu qarorlar muvaffaqiyatlari bajarilishi uchun imkoniyatlar yaratilishi kerak;
- ilmiy-pedagogik kengash qarorlari bajarilishi ustidan qatiy nazorat o'rnatilishi kerak;
- ilmiy-pedagogik kengash a'zolariga qabul qilingan qarorlar bajarilishining borishi hamda ularning amalga oshirilishining samaradorligi haqida doimiy axborotlar va hisobotlar berib turilishi lozim.

Ilmiy-pedagogik kengash qarorlarini amalga oshirilishi, uning obro'ini oshiradi, zaruriyligini ta'minlaydi, hamda ilmiy-pedagogik kengash a'zolari falligini oshiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limdi uslubiy ishlarni maqsadi va vazifalarini ayting?
2. Uslubiy ishlarni tashkil qilish va amalga oshirish funksiyalarini izohlang?

3. Uslubiy ishlarning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini tushuntirib bering?
4. Kasb ta'limi o'qituvchilari ish tizimini o'rganish uchun qanday masalalarни yorituvchi rejadan foydalangan mumkin?

13-MAVZU: BO'AJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK AMALIYOTI

13.1. Pedagezik amaliyotning o'quv me'yoriy bujjatlarda aks etishi va uni olib borish tartibi, amaliyotchi talabaga maslahatlar.

Malakaviy amaliyot. Talabalar umumkasbiy fanlarni o'zlashtirishida olgan bilimlarini nazariy va amaliy mustahkamlash; texnikaviy loyihami va texnologik hujjatlar turlarini va o'tish bosqichlari tartibini o'rganish; energetik mashinalar va apparatlar elementlari va uzellari loyihamarini ishlab chiqish ko'nikmalarini egallashi; sohada qo'llaniladigan hisob metodlari bilan tanishish; korxona konstrukturlik bo'lmlari chizmalarini xo'jaligini va strukturasini hamda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini o'rganish; korxonada konstruksiyalashning darajalari va bosqichlari bilan tanishish; energetik mashinalar detallarining chizmalarini chizish va murakkab uzellarini loyihalash bo'yicha konstrukturlik ko'nikmalarini hisob qilish; detallar va uzellarni mustahkamlikka, ishlov berilishi aniqligiga, ishonchiilikka va boshqalarga hisoblash ko'nikmalarini egallashi.

O'quv-tanishish amaliyoti. Talabalar ichki yonuv dvigatellari va ularning komplektlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar strukturasi, ularning tashqi va ichki aloqalari, ichki yonuv dvigatellarini ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari bilan hamda korxonalarda foydalilanidigan stanoklar va jihozlarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Ishlab chiqarish amaliyoti. Talabalar ichki yonuv vigatellarining asosiy detallariga ishlov berishning texnologik jarayonlari, dvigatel tayyorlashning asosiy bosqichlari, ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalari, motor ishlab chiqaruvchi korxona bo'lmlarining xususiyatlari bilan tanishadilar; dvigatellarni ishlab chiqarish, yig'ish va ularga xizmat ko'rsatishning ba'zi operatsiyalarini bajarish ko'nikmalarini hamda ishlab chiqarish ko'nikmalarini egallaydilar.

Texnologik-konstrukturlik amaliyoti. Talabalar konstrukturlik imasalasini echish uchun zarur bo'lgan konstrukturlik-texnologik bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar; texnologik hujjatlardan foydalishni, konstrukturlik hujjatlarini texnologik nazorat qilishni, detallar konstruksiyalariga ishlov berish texnologik jarayonlarini ishlab chiqishning amaliy ko'nikmalarini egallaydilar.

Bitiruv-malakaviy ishi (loyihasi) oldi amaliyoti. Bitiruvchini bevosita standart talablariga muvofiq mustaqil ishlashga tayyorlash;

o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash; jamoada tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish bo'yicha tajriba hosil qilish; konstruktorlik byurosida konstruktorlik ishi amaliy ko'nikmalarini egallash hamda bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun materiallarni to'plash.

Pedagogik amaliyot: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasalarida oliy nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qiladi. Uning mazmuni maxsus nizom bilan belgilanadi.

O'quv amaliyoti: mashinasozlik sohasi yo'nallishlarida o'qitiladigan umumkasbiy va maxsus fanlariga oid korxonalar bilan tanishish, korxonalar haqida ma'lumotlar to'planadi.

Amaliyotchi talabaga maslahatlar. Pedagogik amaliyot kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda shunday jarayondirki, bunda har bir talaba o'qish davrida to'plagan bilimlarini kompleks tarzda foydalananishga to'g'ri keladi. Shuning uchun pedagogik amaliyot davrida o'qish jarayonidagi barcha kamchiliklar yaqqol ko'rinish qoladi. Pedagogik amaliyot, kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda o'ziga xos sinov hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, amaliyotchining yoshi u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning yoshidan juda kam farqlanadi. Bunday vaziyatda birinchi kundan boshlab to'g'ri yo'l tanlash, o'quvchilarga nisbatan takallufsizlikka yo'l qo'ymaslik, takabburona munosabatda bo'imaslik juda muhimdir. Tajribaning ko'rsatishicha, amaliyotchi talaba o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lsa, ya'ni ularga xayrixohligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda bolalar bilan inoqlashib ketadi.

Amaliyotchi talabaning tashqi qiyofasi ham muhim rol o'ynaydi. U o'quvchiga namuna bo'lishi zarur. Amaliyotchi talaba oddiy, ozoda kiyinishi lozim, bu shartni bajarmagan talaba o'quvchilardan shu narsani talab qila olmaydi. Amaliyotchi talaba nafaqat tashqi qiyofasi bilan, balki o'zining odobi, hulqi, katta va kichiklarga muomalasi bilan namuna bo'lishi kerak. Bu esa talabaning amaliyot davrida turli to'siqlarga duch kelmasdan amaliyotni tugatishiga va davr talabidagi pedagog kadr bo'lishiga zamin bo'ladi. Talabalar amaliyot davrida kollej pedagogik jamoaning a'zosi bo'ladilar, binobarin kollej tartibiga bo'ysunadilar, mehnat intizomiga amal qiladilar.

Pedagogik amaliyotning samaradorligi ko'p jihatdan talabaning mustaqilligi va faolligiga, uning ishga ijodiy yondoshishiga bog'liq bo'ladi. Mana shu amaliyot davrida talaba bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha tadqiqot materiallarni to'plash va umumlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim tizimi jumladan, oliy pedagogik

ta'lif muassasalari oldiga pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash vazifasini qo'ymoqda.

Bo'lajak kasb ta'lif o'qituvchilarini tayyorlashning muhim bosqichlaridan biri pedagogik amaliyat sanaladi. Oliy ta'lif muassasasi auditoriyasida egallangan nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalar maxsus ta'lif muassasalarida amaliyat davomida sinovdan o'tadi, rivojlantiriladi.

Pedagogik amaliyat talabalarning kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quv tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyotning vazifalari:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo'llash malakalar bilan ta'minlash;
- talabalarni maktab, litsey va kaobs-hunar kollejlaridagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
- o'qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otish;
- talabalarni bevosita pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;
- talabalarni maktab, litsey, kasb-hunar kollej o'quvchilarini pedagogik kasbga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni joriy va istiqbolli rejalashtirishni o'rgatish;
- talabalarda o'qituvchining ish rejasiga asoslanib, kasb ta'limi yo'nalishni hisobga olgan holda, kasb hunar kolleji o'quvchilari bilan tarbiyaviy yuilarni olib borish malakasini shakllantirish;
- ta'lif tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllari (dars, suhbat, o'yin va boshqalar)ni amaliyotga tadbiq qilishni o'rgatish;
- talabalarda kasb-hunar kolleji o'quvchilarini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish;
- zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llab dars o'tishni o'rganish kabilardan ilborat.

13.2. Kasb-hunar kollejlarda o'tkaziladigan pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish

Talabalar o'zлари biriktirilgan kasb-hunar kollejlarda ta'lif tarbiyaviy ishlар, guruh murabbiylari va fan o'qituvchisining rejalarini bilan tanishadilar. Amaliyotning birinchi kunida talabalar darslarda va dasrsdan tashqari

vaqtarda o'quvchilarni o'rganadilar. Guruh murabbiysi va fan o'qituvchisi o'quv ustalari bilan suhbatda bo'ladilar.

Talabalar mustaqil ravishda ish boshlashdan oldin o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari hamda o'qishga oid hujjatlarni o'rganadilar.

Amaliyotning asosiy masalalari talabalar faoliyatining aniq turlarida hal qilinadi. Har biri guruhga talabalar biriktiriladi. Ular sinfda o'qituvchi vazifasini bajaradilar, har bir talaba butun amaliyot mobaynida individual ish rejasini tuzadilar. Guruh tarbiyachisi sifatida ishlayotgan har bir amaliyotchi talaba tarbiyachi ishini o'rganadi. Kun tartibidagi xar bir tadbirni (guruh, o'quvchilari bilan suhbat, ochiq dars va mashg'ulotlar, ota-onalar bilan ish), olib boradi. Barcha ishlarni talaba biriktirilgan fan (mutaxassilik) o'qituvchisi va guruh metodisti bilan kelishilgan holda olib boradi. Talabalar bitiruv malakaviy ishlarida barcha tajribalardan misollar kiritish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi bo'lib ishlash mobaynida talaba umumkasbiy maxsus fanlardan dars beradi. Har bir talaba amaliyot davomida taxminan 2-4 haftalarda dastlabki, 4-6 haftada sinov darsini o'tadi. Har bir dars uchun reja konspekt tuziladi. Amaliyotchi - talaba kursdoshlari darslarida qatnashadi va uni tahsil qiladi, darsni jamoa bo'lib muhokama qilishda qatnashadi, sinf jurnalini yuritadi, o'quvchilarga berilgan barcha vazifalarni qabul qilib baholaydi.

13.3. Kasb-hunar kolleji faoliyatini o'rganish

1. Kasb - hunar kolleji rahbarlari bilan suhbat.
2. Kasb - hunar kolleji tarixi va an'analarini o'rganish.
3. Kasb - hunar kollejining o'quv - moddiy bazasi bilan tanishish va uning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil qilish talablariga javob berishi darajasini aniqlash.
4. O'quvchilar kontingenti, qanday kasblarga o'qitilishini o'rganish.
5. Muhandis - pedagog kadrlar tajribasini o'rganish va ularning ilmiy - pedagogik ishlari bilan tanishish.
6. Kasb - hunar kolleji metodik ishlari bilan tanishish.
7. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash ahvoli bilan tanishish.
8. Kasb-hunar kollejida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganish.
9. Hunar ta'limi ustalarining kasbni targ'ib qilish ishlari bilan tanishish.
10. O'quvchilarni, ularning o'quv-ishlab chiqarish va tarbiya ishlariiga munosabatlarni o'rganish.
11. Guruh ustasining kundaligi, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, oila va yotoqxonadagi shaxsiy hayoti bilan tanishish.
12. Guruhda olib borilayotgan mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya sifatini o'rganish.
13. Guruhdag'i o'quvchilar o'rtaсидаги munosabatlarni o'rganish.

14. Guruh jamoasining ahilligi, faolligi shakllanishida sinf rahbari va ustanning rolini o'rganishi.

Tavsiyalar: Amaliyot davrida o'quvchilar shaxsini o'rganishning hamma metodlarini (guruh ustasi, sinf rahbari, ota - onalar bilan suhbat, o'quvchilarning uylariga borish) qo'llash lozim.

O'quvchilar guruhi jamoasining mehnat faoliyatini tashkil qilishda guruh ustasi va sinf rahbarining roliga etibor berish kerak.

13.4. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo'yicha hujjatlar va ularni rasmiylashtirish, pedagogik amaliyotni yakunlash

Pedagogik amaliyot tugaiganidan so'ng talabalar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- 1) Amaliyotchnining shaxsiy ish rejasi.
- 2) Pedagogik amaliyot kundaligi.
- 3) Amaliyotchi talabaning mutaxassislik fanlar bo'yicha kamida 40 ta darsning tahlili.
- 4) Maxsus fanlardan kalendar mavzuli reja.
- 5) Tarbiyaviy ish rejasi.
- 6) Tarbiyaviy soatlar tahlili.
- 7) Maxsus fanlardan tashkil qilingan to'garak ishlar rejasi.
- 8) YOsh fiziologiya va gigiena fanidan mustaqil ish topshiriqlariga javoblar.
- 9) Tarbiyaviy tadbir ssenariysi.
- 10) O'quvchiga psixologik - pedagogik gavsifnomasi: a) guruh uchun; b) 2-ta o'quvchi uchun.
- 11) Amaliyotchi talaba dars o'tadigan mutaxassislik fanidan 6-8 ta darsning reja -konspekti.
- 12) Ochiq dars uchun talaba tomonidan tayyorlangan o'quv-ko'rgazmali quroq.
- 13) Ochiq dars tahlili va kollej metod birlashmasi (Maktab ped.kengashi) bayonnomasidan ko'chirma.
- 14) Amaliyotchi talaba uchun pedagogik amaliyot o'tgan o'quv muassasasiningtavsiynomasi.
- 15) Hisobot.

Amaliyotning umumiy bahosi talabaning tarbiyachi va o'qituvchi alfatisda bajargan ishi, o'quvchiga yozilgan pedagogik tavsifnomasi, hamda hujjatlarning o'z vaqtida topshirilishi va sifatini hisobga olgan holda reyting ilzimin asosida quyiladi.

Pedagogik amaliyotni o'tashda talaba pedagogika, psixologiya, umumtexnik va metodik fanlardan egallangan bilimlariga tayanadi.

Pedagogik amaliyot yuzasidan hisobot. Amaliyot tugaigach, talaba 3 kun ichida hisobot topshiradi. Unga kundalik, tavsifnomasi, dars rejalarini, ochiq darslar muhokamasi qarorlaridan ko'chirma, o'tkazilgan darslar rejasi va konspekti, qatnashgan darslari tahlili bayoni, utkazilgan tarbiyaviy

ishlarning ssenariysi (matni), 2 ta uquvchiga psixologik - pedagogik tavsifnoma, amaliyotchining ish dasturi, amaliyot davrida guruhning o'quv-tarbiya ishlari oylik va yillik (semestr) ish dasturlari, kasb -hunar kolleji haqida ma'lumot, kelgusida kasb - hunar kolleji ishini rivojlantirish, dars sifatini oshirishga oid fikrlari ilova qilinishi kerak.

Pedagogik amaliyotni yakunlash. Pedagogik amaliyot fakultet miqyosida konferensiya o'tkazish bilan yakunlandi. YAKUNLOVCHI konferensiyyada pedagogik amaliyotga uzil-kesil xulosalar chiqariladi. Dokladlar amaliyotchilar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini (darslarni o'tkazish, o'z ixtisosidan darsdan tashqari ish o'tkazish, guruhi rahbari sifatida ishlash) aks ettirilishi lozim. Ular aniq bo'lishi va u yoki bu tadbirni o'tkazish vaqtida amaliyotchi qanday qiyinchiliklarga duch kelganini va ularni qanday bartaraf etgani, qanday masalalarni hal etishda o'zini dadil tutgani va bunda unga nima yordam bergani, kasb-hunar kollejida olingan qaysi bilim va o'quvlar etishmagani, amaliyot davomida uning muvaffaqiyatli o'tishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan yoki yo'qligi, amaliyot bundan ham muvaffaqiyatliroq o'tishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida tinglovchilarda aniq tasavvur hosil qilishi darkor. Yakunlovchi konferensiya vaqtida xonada amaliyotchilarning faoliyatini aks ettiruvchi ko'rgazma tashkil etiladi.

Kasb ta'limi o'qituvchisining o'quv-tarbiyaviy ishlarni o'rganish

1. Kasb ta'limi darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodlarini o'rganish maqsadida darslarga qatnashish va uni taxlil qilish.
2. O'qituvchining darsga tayyorlanishini o'rganish va unga qatnashish (daus rejasini tuzish, uning moddiy - texnik bazasini tayyorlash).
3. 3 - 4 mutaxassislik darsini dars mustaqil o'tkazish va 5 - 6 darsni tahlil qilish.
4. Pedagogik tajriba orttirish uchun mutaxassislik fani turkumidagi darslarga qatnashish va ularni tahlil qilish.
5. 3 - 4 nazariy darsni mustaqil o'tkazish va ikkitasini tahlil qilish.
6. Kasb-hunar talimi o'qituvchisining hujjalari bilan tanishish.
7. Kasb-hunar talimi o'quv rejasi va dasturini o'rganish.
8. Mavzuli (kalendor - tematik) rejani o'rganish.
9. Kasb ta'limi bo'yicha keltirilgan vaqt meyyorlarini belgilashni o'rganish.
10. Kasb bo'yicha o'quv pasportini o'rganish. O'quv texnologik hujjalarni o'rganish
11. O'quv - ishlab chiqarish ishlarning ro'yxatini tuzish
12. Guruh uchun kasb-hunar talimi rejasi.
13. Frontal o'tilmaydigan mavzular va o'quvchilar ish joylarining almashishi.

Tavsiyalar: Amaliyotchi talaba hunar talimi ustasining ishi bilan batafsil tanishadi va uning ish tajribsidan o'z mehnat faoliyatida ijodiy foydalanishi kerak.

Amaliyotchi o'zi biriktirilgan guruhning o'quv ishlarida qatnashadi, joriy, boshlang'ich tushuntirish ishlarini, so'ngra guruhda mustaqil mashg'ulot o'tkazadi.

Amaliyotchining kasb - hunar kollejidagi metodik ishlari:

- pedagogik kengash ishlari;
- fan - metod birlashma yig'ilishlari;
- instruktiv - metodik yig'ilishlar;
- ishlab chiqarish talimi va nazariy ta'lif jurnallarining to'g'ri yuritilishini taminlash;
- ishlab chiqarish talimi bo'yicha guruhga oylik va (chorak) kvartal reja hamda hisobotlar tuzishda faol qatnashmog'i lozim.

Ochiq dars amaliyotchi ishtirokida fan - metod birlashma yig'ilishida tahlil qilinadi. O'tkazilgan ochiq dars uchun barcha hujjatlar (dars rejasи, konsepti, texnologik karta, muhokama qarori) talabaning pedagogik amaliyot yuzasidan hisobotiga ilova qilinadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisining darsdan tashqari ishlarini o'rganish

1. O'quv - tarbiya ishlari bo'yicha direktor muovini, tajribali usta va o'qituvchilar bilan darsdan tashqari olib boriladigan ishlari haqida suhbatlashish.
2. Darsdan keyingi tadbirlarni tashkil qilish metodikasini, ahamiyatini o'rganish uchun 2 tadbirni kuzatish.
3. Darsdan keyingi tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etish.
4. Tavsiyalar: Amaliyotchi pedagogik amaliyotining boshlanishida ishlab chiqarish ustasining tarbiyachi sifatida olib boradigan ishlari mazmuni va metodikasi bilan tanishib, guruh faollari bilan yaqindan tanishadi.
5. Ishlab chiqarish ustasining tarbiyaviy (darsdan va maktab (kollej) dan tashqari) ishlari rejasini ijodiy o'rganadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi va guruh rahbarining kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganish

1. Ummatalim maktablari, kasb - hunar kollejida ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbarlari olib boradigan kasbga yo'naltirish ishlarining usullari va metodlari bilan tanishish.
2. Ishlab chiqarish talimi ustasi kasbiga qiziqirish ishlarini tashkil qilish va o'tkazishda quyidagilarga etibor berish kerak:
 - kasb-hunar kollejida yosh malakali ishchilar tayyorlashda ishlab chiqarish ustasining roli;
 - Nizomiy nomidagi TDPUning respublika ta'lif muassasalariga o'qituvchilar tayyorlashdagi roli;
 - Nizomiy nomidagi TDPU qabul shartlari, talim va tarbiya sharoitlari;
 - Nizomiy nomidagi TDPU ga ekskursiya uyuştirish.

Pedagogik amaliyotni babolash mezonlari

Pedagogik amaliyot davomida talabalarning faoliyatini nazorat qilish va babolash 100 ballik reyting tizimi asosida amalga oshiriladi.

O'quv rejasidagi fanning xususiyatidan kelib chiqib ballar quyidagicha taqsimlanadi:

«Pedagogika» fanidan – 25 ball

«Psixologiya» fanidan – 10 ball

«Gigiena» fanidan – 5 ball

Mutaxassislik fanidan – 60 ball

Talabalarning ballarda ifodalangan o'zlashtirishlari quyidagicha baholanadi:

86 – 100 ball – 5 «a'lo»

76 – 85 ball – 4 «yaxshi»

55 – 75 ball 3 «qoniqarli»

Nazorat uchun savollar:

1. Amaliyot tushunchasi?
2. O'quv amaliyoti tushuntiring?
3. Pedagogik amaliyotni tushuntiring?
4. Pedagogik amaliyotchi talabaning vazifalar?
5. Pedagogik amaliyot xujjatlarini rasmiylashtirishni tushuntiring?
6. Pedagogik amaliyot ximoyasini tushuntiring?

14-MAVZU: KASB TA'LIMI METODIKASIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH VA BAJARISH METODIKASI

14.1.Mustaqil ishlar xaqida va bajarish texnologiyasi

Mustaqil ta'lrim olish etuk mutaxassis bo'lib etishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yakqol namayon bo'ladi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, etuk, tarbiyalı, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo'lib etishishiga ahamiyat berishgan.

Sharqning buyuk allomalarli o'z ijodlarida mehnat qilishni, kasb-hunar egallashning ahamiyatini ta'kidlab o'tganlar. Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad YAssaviy, Yusuf Xos-Hojib, SHayh Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad Yugnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatni, kasb-hunarni ulug'laganlar. Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389 yil) buyuk naqshbandiylik ta'lilotining asoschisi bo'lib, «Dil ba yor u, dast ba kor», ya'ni «Diling

Oollohga, qo'ling mehnatga bo'lsin» deb o'rgatganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy deyarli har bir asarida hunar o'rganishni, halol mehnatni ulug'laganlar. Jumladan, «Farhod va SHirin» dostonida shunday yozadi: «Hunarni asraban netkundir oxir, olib tuproqqamu ketgumdir oxir».

Yuqorida sanab o'tilgan buyuk allomalar o'z hayoti va ijodiy faoliyatlarida kasb-hunar egallashni ulug'lash bilan bir qatorda kasb-hunar egallashda mustaqil ish bajarishning naqadar muhimligi ta'kidlaganlar.

Pedagog olimlarning aksariyat qismi mustaqil ta'linni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini umumiylamo sifatida qaraydilar. Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'limga olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondoshish ko'zga tashlanadi. Bunda u faol, ta'limga, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'limga muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'limga olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga bayoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi.

Mustaqil ta'limga shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiyalmasdan hunda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir.

Mustaqil ta'limga bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvoqfiq: «Mustaqil fikrlash -insonnинг o'z oldida turgan muammolarni maqsad va yuzifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, torli yo'il, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual inkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan nijliy faoliyatidir».

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'limga olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik medaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'limga olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni qururlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi o'z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini nijiq bir maqsadga yo'naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga rivoja qilishi kerak.

1. O‘z bilimini mustaqil oshirish mazmunini kasb ta’limi o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik amaliyat o‘tayotgan ta’lim muassasasining o‘quv ustaxonasi dagi aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, talablariga moslashtirishi kerak.

2. Kasb ta’limi o‘qituvchisi ma’lum maqsad asosida va ma’lum tartibda o‘zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarining intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish;

- talabalar bilan emmotsional aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish.

3. Kasb ta’limi o‘qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya, mehnat giganesi va fiziologiyasi, texnika va texnologiya fanlari bo‘yicha savollar ro‘yxatini mustaqil o‘rganib chiqishlari shart.

4. Kasb ta’limi o‘qituvchisi o‘zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishslash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob’ektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi kerak.

5. Kasb ta’limi o‘qituvchisi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

6. Kasb ta’limi o‘qituvchisi o‘z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil eti shva ma’lum maqsadga yo‘naltirish zarur.

Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorlarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

Yuqorida fikrlar kasb ta’limi o‘qituvchisining mustaqil ta’lim olishi yangicha ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishimi ko‘rsatib turibdi.

14.2.Mustaqil ta’lim olish metodikasi

«Mustaqil ta’lim» tushunchasi pedagogik lug‘atlarda o‘quv yurtidan tashqari, mustaqil o‘rganish tufayli egallanadigan ta’lim turidir, deb ta’riflangan. Ayni vaqtida «mustaqil ta’lim olish», «o‘zini tarbiyalash», «mustaqil o‘qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalilmoqda.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta’limga quyidagicha ta’rif berilgan:

Mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarini auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darjasи, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliligi hamda o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyat bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir.

Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik asoslari tahlil qilini, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobjiy natijalarga erishish imumkin. Bunda o'tiladigan mavzuning amaliyat bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliligi, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rinn tutadi. Ammo eng asosiyisi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e'tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini, ular ijtimoiy foydali, targ'ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta'lim jarayoni qanday amalga oshirilishi, uning rivojlanishi, o'zlashtirilgan bilimlar asosida mustaqil ta'lim faoliyatini harajalarini quyidagi mezonlar bilan belgilash mumkin:

- maqsadga yo'naltirilgan, motivatsion muhitdagи mustaqil ta'lim;
- mustaqil tafakkur jarayonini ta'minlovchi ko'nikmalar;
- mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan ko'nikmalar.

Talabalar mustaqil ta'lim olishlari jarayonida qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qiladi, o'tilgan mavzularni qayta ko'rib chiqadi. Ko'pgina talabalar uyga berilgan ma'ruza matnlari ustida ishlaydilar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlashda ilmiy-ommabop, davriy nashrlardan foydalananadilar.

Pedagogik hamda texnik-tehnologik mustaqil ishlarni bajarishda talaba bo'lajak kasbiy faoliyat muammolarini hal etish usullarini egalaydi. Pedagogik hamda texnik-tehnologik mustaqil ishlarni bajarishda didaktikada mustaqil ta'lim darajasini oshiruvchi, boshqaruv, rag'batlantirish, tashkil etish va nazorat vositalari sifatida qaraladi.

Talabaning o'quv faoliyatiga nisbatan o'qituvchi tomonidan muuyyan talablarning qo'yishi ularning mazmunini boyitadi. Pedagogik hamda texnik-tehnologik mustaqil ishlarni bajarishda topshiriqlarning berilish shakli esa oldin o'zlashtirilgan namuna bo'yicha xulosalar chiqarishni ko'nda tutuvchi boshqaruv topshiriqlari va masalalarining boyurilishi sanaladi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik hamda texnik-tehnologik mustaqil ishlarni bajarishda va masalalarda avtonom holda mustaqil bilim olishga o'tish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Pedagogik hamda texnik-tehnologik mustaqil ishlarni bajarishda mustaqil bilim olishni amalga oshirishga imkon beruvchi topshiriqlar to'plamini yaratish uchun asos bo'la oladi.

Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarda ob'ektiv, aniq pedagogik va ishlab chiqarish muammolarini aks ettiradi. O'qituvchi o'rganilayotgan pedagogik hodisalar va ishlab chiqarish jarayonining o'zaro zid xususiyatlarini aks ettirish uchun muammoli vaziyatdan foydalansa, ob'ektiv muammo o'quv muaminosiga aylanadi. Talabalar uchun tushunarli bo'lgan o'quv pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni muammolari o'quv topshirig'i sanaladi.

O'quv topshirig'i muammosi fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, biroq ularning har biri ham ilmiy darajada pedagogik va psixologik tushunchalarni mustaqil shakllantirishga olib kelmaydi. SHU bois pedagogik va texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqishda o'quv muammolarining didaktik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Topshiriq to'g'ri ifoda etilsa, talaba tomonidan ularning qabul qilinishi osonlashadi.

Mustaqil bilim olishda ko'pincha shartlari ifoda etilmagan topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladi. Talaba masalani echar ekan, shartlarni o'zgartirish tartibi bilan tanishadi, aniq bir muammoni tahlil qilish va o'quv-pedagogik yoki texnik-texnologik masalani bajarishda mavjud ko'nikma hamda malakalardan foydalananadi.

Bunday pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Shartlari ifoda etilgan, biroq echish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar berilmagan masalalar. Ular nazariy va amaliy masalalar tarzida ikki guruhga ajratiladi. Amaliy masalalar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bunday masalalarni echishda faqatgina aqliy faoliyat, bilim, malaka va ko'nikmalargina emas, balki sensor hamda harakatlар faolligiga erishish talab etiladi. Bu masalalar mustaqil bilim olish texnologiyalarining amaliyot bilan uzviylikni ta'minlashga yordam beradi.
2. O'zlashtirilmagan bilim, harakat va operatsiyalarga duchi kelinmaydigan masalalar. Mazkur masalalar avval o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni yangi vaziyatlarda qo'llash, fikrlash malaka va ko'nikmalarini egallash hamda mavjud bilimlarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan.
3. Savollar – yangi bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishga tayyorlikni aniqlovchi vosita. Savollarda quyidagi ikki jihat ko'zga tashlanadi: mavjud bilimlarni tekshirish va mustaqil xulosaga kelishga yo'naltirish. Savollar reproduktiv va produktiv tarzida ikki guruhga bo'linadi. Reproduktiv savollar xotirani mustahkamlash, produktiv savollar esa fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular sub'ektlarga aqliy harakatlarni o'zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, muhimini ajratish, mustaqil

ravishda xulosalarga kelish va amaliy qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mustaqil ta'lif faoliyatining birinchi bosqichida fanlarga bo'lgan qiziqish asosiy manba bo'ladi. Biroq bu qiziqish etarli darajada qat'iy va chuqur bo'lmaydi. Bunda ham maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, maxsus tashkiliy, mustaqil ta'lif faoliyatini mayjud emas. Faqat kitoblar o'qish, maxsus ma'ruzalar tinglash, mustaqil tafakkur faoliyatiga intilish bo'ladi. SHaxsning mustaqil ta'lif olish faoliyatiga qiziqishlari ham mujassamishmagan, u ham ko'plab qo'shimcha, keng miqyosli ishlarni amalga oshiradi, biroq bularni uzviy ravishda emas, balki ba'zan va chuqur bilimga ega bo'lmay amalga oshiradi.

Mustaqil ta'lif faoliyatining ikkinchi bosqichida talabalar mustaqil (albalta, nisbatan) o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yib, mustaqil faoliyat mazmunini anglab, tashkiliy ishlarni amalga oshirib boradilar. Bu davrda talabalar shaxsiy – hayotiy rejalar, g'oyalarni amalga oshirish vositasini sifatida kasbiy vazifalarni hal etadilar.

Ikkinci bosqichda ularning mustaqil faoliyat qiziqishlari jiddiyashadi, fanning alohida qismini o'rganish, bu orqali o'z hayotiy rejalarini tuzish, biron kasbni egallashga bo'lgan qat'iy istak asosiy o'rinni tutadi. Ongli ravishda ko'shimcha faoliyat bilan shug'ullanadi, o'z g'oyalarni amalga oshirish vositasiga aylangan mustaqil ta'lif bilan shug'ullanishga intilish paydo bo'ladi. Mustaqil ta'lifni ongli ravishda tashkil etadi.

Mustaqil ta'lif faoliyatining uchinchi bosqichida talabalar mustaqil ta'lif bilan bir necha yil shug'ullanib, o'z kasbiy maqsadlari, faoliyatini yo'malishlarini vazifalarini aniq belgilash malakasiga ega bo'ladir.

Mustaqil bilim olish darajasini baholash o'z-o'zini baholash va o'qituvchi tomonidan baholash asosida qiyoslanadi.

O'qituvchi tayyorlash o'quv rejasiga kirtilgan ta'lif dasturlarida talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishlari nazarda tutilgan. Barcha yo'nalishdagi bakalavr-o'qituvchi tayyorlash o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi hafkasiga 54 soat qilib belgilangan. SHundan auditoriya o'quv ishlari hajmi hafkasiga 28 soat, qolgan qismi, ya'ni 26 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lif olishga qaratilgan. Kasb ta'limi yo'malishida bo'yicha bakalavr-o'qituvchilar tayyorlash uchun belgilangan o'quv yuklamasining umumiyy Hajmi 7344 soatni, shundan mustaqil ish soatlari 2992 soatni tashkil qiladi. Bundan ko'tinib turibdiki, bakalavr darajasidagi kadrlarni tayyorlash uchun o'quv rejasida belgilangan yuklamaning 48 % hajmi mustaqil ta'lif olishga qaratilgan. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar fanlararo bog'lanishni hisobga olib, o'quv adabiyotlarini tanlaydi, ulardan berakli ma'lumotlarni yozib oladi, ularni tahlit qilib, mustaqil ishning mazmunini o'rganadi va shu ish bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi.

Berilgan masalaning bir qismini auditoriyadan tashqarida (kutubxona, laboratoriya xonasi va boshqalar) ham mustaqil ishlashga ruxsat etiladi. Mustaqil ish dasturini belgilashda o'tilgan mavzularning takrorlanishiga yo'l qo'yilmagan holda talaba uchun ilmiy, amaliy jihatdan muhim, o'rgangan hamda o'rganayotgan bilimlaridan ijodiy foydalanish mumkin bo'lgan savollar va masalalar qo'yiladi.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr-o'qituvchilar tayyorlashda mustaqil ishslash ko'nikma va malakalarini shakllantirish quyidagi yo'llar asosida tartibga keltirildi:

- o'quv faoliyatida inson ob'ektiv borliqni o'rganishda, o'zining hayotiy tajribasini boyitishda, tabiatga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilib olishda shu bilan bir vaqtida, o'zining qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beruvchi idrok etish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi.
- talabalar analiy faoliyati jarayonida kerakli bilim, ko'nikma va malakalar egallashlari, bu jarayonda o'qituvchi kuzatishga, o'z kuzatishlarini tajribalar yo'li bilan tekshirishga, o'quv adabiyoti bilan ishslashga, fan ma'lumotlaridan kundalik hayotida foydalanishga o'rganadi.

Kasb ta'limi metodlaridan talabalarda mustaqil ta'lim olish malakasi shakllanganlik darajasini aniqlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Ularni shartli ravishda quyidagi nomlur bilan atash mumkin:

1. O'quv materiallarini o'rganishda va mustaqil ish jarayonini tashkil etishda umumiyyidan tipiklikni va xususiylikni ajratib olish malakasi (ajrata olish malaka).
2. Mustaqil ish bajarilishi jarayonida texnologik jarayonlarni va texnik ob'ektlarni tanlash, analiy bajarish, texnik chizmalar, sxemalar tuzish malakasi (tuzish malakasi).
3. Auditoriyada, auditoriyadan tashqarida, o'quv ustaxonasida va uuda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish malakasi (tashkil etish malakasi).
4. Mustaqil fikrlash malakasi (fikrlash malakasi).
5. Materialni o'rganishda o'z-o'zini nazorat qilish malakasi (nazorat qilish malakasi).

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarini mustaqil ishslash malakalariga o'rgatish turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. Talabalarga texnik masalani, misolni echish namunasi beriladi. ular bilan tanishgandan so'ng talabalar mustaqil yoki jamoa bo'lib, shunga o'xshash masalani echadilar. Ularga amaliy ish bajarishning texnologik xaritasi beriladi, talabalar xarita asosida mustaqil holdi faoliyat bilan shug'ullanadilar. To'plangan tajribalari asosida talabalarning umumiyligi faoliyati rejasini tuzish, ya'ni masalani echish va amaliy mashqlarni bajarish tartiblarini foydalanadigan usullarni ko'rsatishlari taklif etiladi.

2. Talabalarga texnik masalani echishning tayyor yo'riqnomasi (reja yoki algoritmi), amaliy ish bajarish bosqichlari, uni qo'llash namunasi va mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi. Bajarish jarayonida topshiriqning eng qiyin bosqichlari jamaoa bo'lib o'rGANILADI.

3. Talabalarga mavzulardan biri bo'yicha masalani echish yoki texnik ijodiy mashq bajarish rejasini beriladi. Uning amaliyotda qo'llanilishini mashq qilib, talabalar boshqa mavzuga o'tadilar, buning uchun ularga avval bajarilgan mashqlardan namuna sifatida foydalangan holda reja tuzish inkifit etiladi.

4. Talabalarga mustaqii ishning umumiyligi rejasini va uni nizqlashtirish metodi beriladi. Ular aniq bir mavzuni bajarishga kirishib, anishg'ulot mavzusiga binoan umumiyligi rejaning dastlabki ko'rinishini ozadilar, keyin texnik masalani echish yoki amaliy mashq bajarish jarayonida uni mustahkamlaydilar.

5. Talabalarga berilgan mavzu, bo'lim bo'yicha aniq tarzda masalani echishni yoki amaliy mashq bajarish jarayonini qanday nizqlashtirishga oid tushunchalar beriladi.

